

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

5110900- FILOLOGIYA FAKULTETI

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI YO'NALISHI BITIRUVCHISI

MUHAMMADJONOVA ZARNIGORNING

“MUROJAAT GAPLARDA GENDER SHAKLLARINING IFODALANISHI”

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

D.NABIYEVA

ANDIJON 2017

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-5
--------------------	------------

I BOB. GENDER VA UNING TILSHUNOSLIKDA AKS ETISHI

1.1. Gender tushunchasi.....	6-9
1.2. Tilshunoslikda gender munosabatning o`rganilishi	9-13
1.3. Murojaatda gender xoslanishlar.....	13-18

II BOB. MUROJAAT SHAKLLARIDA GENDER MUNOSABATNING IFODALANISHI

2.1. Muloqot jarayonida murojaatning o`rni va ularning tasnifi.....	19-36
2.2. Erkaklar va ayollar murojaatining o`ziga xos qirralari.....	36-57

XULOSA.....	58-60
--------------------	--------------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	61-64
--	--------------

KIRISH

1. Mavzuning dolzarbligi. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» talablari bo’yicha ta’lim tizimida o’tkazilayotgan islohotlar katta qadamlar bilan davom etayapti. Qonunlar va DTS talablaridan biri barkamol shaxsni shakllantirishdir. Vatanimizning kelajagi ko’p jihatdan ana shu yoshlarimizning bilimi va salohiyatiga bog’liq. Qisqasi, ularga bugungi berilayotgan bilim, hosil qilinayotgan vatanparvarlik ko’nikmasi ertangi kunimizning kafolatidir.

Mustaqillik davri talabi O‘zbekistonda o‘zbek tilshunosligining hozirgi holati bu sohada yangi yo‘nalishlarning shakllanishini taqozo qilmoqda. O‘zbek tilshunosligida XX asr so‘nggida shakllanib, jadal rivojlanayotgan tilshunoslik fanining yangi yo‘nalishlari sotsiolingvistika, psixolingvistika, sistem tilshunoslik, til va nutqni farqlash, til va millat, jamiyat va til kabi ilg‘or fan yo‘nalishlari yuzaga keldi.

Hozirgi davr tilshunosligida shunday fanlar qatorida insonning, ya’ni erkak va ayolning jamiyatda tutgan o‘rni, ularning ruhiy olami va til xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan gender lingvistikasi fani yo‘nalishidagi tadqiqotlar kuchaydi.

Gender lingvistikaning jamiyatda ahamiyati katta. Birgina jinoyat-qidiruv sohasini oladigan bo‘lsak, aybdorni izlash jarayonida izquvar uning kimligini aniqlash uchun, avvalo, o‘sha jinoyatni qilgan odamning shaxsini hamda jinsini aniqlashga harakat qiladi. Ularning yozuvlari, imzosi, xatti-harakatlari, gap-so‘zlariga qarab jinoyat sodir etgan shaxs aniqlanadi. Gender tilshunosligi ana shu muammolarni hal etishda asosiy manbaa bo‘lib xizmat qiladi.

Til-jamiyat munosabati masalasini tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Jamiyat va insoniyat taraqqiyotining o‘zi ham tilshunoslikning bu kabi yangi soha va yo‘nalishlarini taqozo etmoqda. Chunki har ikkijins vakilining o‘ziga xos, biri-biriga o‘xshamaydigan muloqot me’yorlari, so‘z va iboralari mavjudki, bularni

bilmay turib ularning fikrini, o`y-kechinmalarini anglash qiyin, tushunish, muloqotga kirishish murakkab bo`ladi.

Ushbu yo`nalishda ilmiy kuzatishlar olib borish uchun dastlab genderologiyaning nazariy-metodologik asosini to`g`ri uqish, o`zbek tilida bu sohaga oid tushunchaviy apparatni shakllantirish, aynan shu sohaga muvofiq keladigan tadqiq va tahlil yo`nalishlarini belgilab olish lozim bo`ladi. Ana shundagina o`zbek tilshunosligida mazkur sohaning mustaqil ilmiy yo`nalish sifatida ajralishi va taraqqiy etishiga zamin hozirlanadi.

Gender lingvistikasining dolzarb muammolaridan biri gender munosabatda pragmatik o`xshatish, pragmatik shakldoshlik, pragmatik ma`nodoshlik, pragmatik ziddoshlik kabi hodisalar tadqiqi hisoblanadi.

Mazkur ishimiz mavzusi til va tafakkur munosabati, ayol va erkaklarningdunyoqarashi, tafovutlarning takrorlanish darajasi bilan birgalikda, ularning dunyo manzarasining turli jihatlaribilan aloqalarini aniqlash tilshunoslikning yangi yo`nalishi bo`lgan genderolingvistikaning dolzarbligini belgilab beradi.

2.Ishning obykti va predmeti. Ishning tadqiq manbayi erkaklar va ayollar tomonidan qo`llaniladigan murojaatlar hisoblanadi. Ishning predmetini esa ularning nutqida qo`llaniluvchi ijobiy va salbiy bo`yoqqa ega so`zlar, undalmalar, qarg`ish so`zlar,ibora va shu kabilarning ma`noviy jihatlarini tashkil etadi.

3. Ishning maqsad va vazifalari.Aloqa-aralashuv jarayonida ayollar va erkaklar nutqida ishlatiladigan murojaat shakllarining ahamiyati va xususiyatlarini yoritib berish ishning maqsadi hisoblanadi.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalarning amalga oshirilishi nazarda tutiladi:

- dunyo tilshunosligida bo`lgani kabi, o`zbek tili va nutqining gender xususiyatlarini batafsil tadqiq etish;
- gender tahlil qilishda genderologik yondashuvning ahamiyatini o`rganish;
- muammoga oid boshqa masalalarning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o`rganish;

- erkaklar va ayollar nutqidagi o'ziga xoslikni aniqlash;
- murojaatlarni tasnif qilish hamda ular asosida jins munosabatdorligini farqlash;
- erkaklar va ayollar murojaatida qo'llanuvchi vositalarni tahlil qilish;

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi: til va jins munosabati masalasiga bag'ishlangan tilshunoslikka oid ilmiy ishlar bilan tanishish; ayollar va erkaklar murojaatini kuzatish, to'plash va tasniflash; murojaatlarda aks etgan o'ziga xosliklarni ifodalab turuvchi belgilarni qayd etish va tahlil qilish kabilar.

4. Ishning metodologik asosi va metodlari. Til va tafakkur birligi, til va jins mushtarakligi qonuniyati ishning metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi.

5. BMIning tuzilishi va hajmi. Kirish, ikki asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, Temis New Roman shriftining 1,5 intervali, 14 kegel kattaligida, 64 sahifani tashkil etadi.

I BOB. GENDER VA UNING TILSHUNOSLIKDA AKS ETISHI

1.1. Gender tushunchasi

Gender tushunchasi erkak va ayollarning psixologik, ijtimoiy va madaniy o'ziga xos xususiyatlarini nazarda tutadi.¹ Insoniyatning uzoq yillik evolyutsiyasi jarayonida bu ikki qarama-qarshi jins o'ziga xos bo'lgan umumiylik hamda farqlarga ega bo'lib bordi. Natijada ayol va erkakni bir-biridan farqlovchi va umumlashtiruvchi xususiyatlar tizimi shakllandi. Gender erkaklar va ayollar aynanligi va xulq-atvordagi tafovutni nazarda tutadi.²

«Gender» tushunchasi fanga biologik jinsning, ya'ni ular asosida insonlarni erkak va ayolga ajratuvchi «jins» tushunchasidan ajratish uchun kiritilgan. Keyingi tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, biologik nuqtayi nazardan jinslar o'rtasidagi farqlardan ko'ra o'xshashliklar ko'proq. Shunga ko'ra, biologik jins ayol va erkakning jamiyatdagi rolini belgilovchi asosiy omil bo'lib xizmat qilmaydi. Ayol va erkak o'rtasidagi tafovut insoniyat paydo bo'lgandan boshlangan bo'lib, bu tafovut dastlab ularning bajaradigan yumushlarida ko'zga tashlanadi. Erkaklar ov qilish, tirikchilik uchun yemak izlash bilan band bo'lgan, ayollar esa uyda olov o'chib qolmasligi uchun unga o't tashlab turishgan. Keyinchalik kishilik jamiyatining taraqqiy etishi natijasida ayol va erkakning xulq-atvorida, kiyinishida, yurish-turishida, shuningdek, so'zlashida ham farqli jihatlar ajrala bordi.

Hozirgi vaqtda tilshunoslikdagi gender tadqiqotlar turli ilmiy paradigmalarda olib borilmoqda. Jamiyat madaniyati, ijtimoiy-madaniy munosabatlar erkak va ayolning jamiyatdagi maqomini belgilab beradi. Turli tillarda ana shu «erkak» va «ayol» konseptlarining tarkibi bir xil bo'lmay, turli til vakillarining «erkak» va «ayol» haqidagi tushunchalari yuqoridagi omillar bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Til vositalarini gender jihatidan tahlil qilish keyingi yillarda tilshunoslikda amalga oshirilgan va oshirilayotgan masalalardan biri hisoblanadi. Yevropa tilshunosligida bir qator ishlar amalga oshirilgan bo'lib, erkak va ayollar nutqida uchraydigan murojaatlarning farqli holatlari ko'rsatib o'tilgan. Xususan, rus

¹ Qarang: Islomova Sh. Qipchoq lahjasidagi iboralarning etnosotsiopragsmatik xususiyatlari. Magistr.dar. olish.dissQ.,2013y.

²Islomova Sh. Ko'rsatilgan manba.

tilshunosligida ham bu borada yetarli darajada ishlar olib borilgan bo'lib, rus erkak va ayollari nutqidagi barcha vositalar tahlil qilingan. Har bir millat o'zining mental tabiatidan kelib chiqib muloqot jarayonida til vositalarini turlicha qo'llaydi. O'zbeklar nutqida qo'llaniladigan til vositalari, ya'ni murojaat shakllari boshqa xalqlarnikidan farq qilib, unda o'zbekona madaniyat aks etib turadi. Shu bilan birga, ayollar va erkaklar nutqida ham bu vositalarning qo'llanishida farqlar kuzatiladi.

Rus tilshunosi A.V.Krilina o'zining "Ilmiy ishlarda genderning tadqiq etilishi" mavzusidagi tadqiqotlarida gender tilshunoslik xususiyatlarini atroflicha o'rgangan. Unga ko'ra, gender tadqiqoti bir necha metodologik prinsiplarda o'rganiladi. Ular o'z navbatida ikki guruhga ajratiladi. Birinchi guruh gumanitar fanlardagi umumiy gender yondashuv bo'lib, lingvistika, psixologiya, sotsiologiya va boshqa gumanitar fanlar uchun umumiydir.

Gender analizida to'rtta kategoriya bor:

- 1) Borliq kategoriyasi;
- 2) Fikrlash kategoriyasi;
- 3) Inson faoliyatida tilning ma'lum maqsad yo'lida ishlatilishi;
- 4) Til sistemasida birliklar munosabati.

Genderning umumiy analiz prinsiplari:

1. Gender – jamiyat va madaniyat rivojlanishining mevasi bo'lib, nisbiy xarakterga ega.
2. Gender doimo harakatda va o'zgaruvchan.
3. Gender – gumanitar fanlarda umumiy kategoriya.

Har qanday tilning gender analizi uchun tilshunoslik metodlari zarur. Bundan tashqari, tilshunoslik genderologiyasi yangi ilmiy yo'nalish bo'lib, unga ham har qanday yangi yo'nalishga xos bo'lgan belgilar, ya'ni yetarli bo'lmagan o'rganilish xosdir. Bu yangi ilmiy yo'nalish endigina o'ziga xos bo'lgan metodlarni ishlab chiqyapti.

Shu bilan birgalikda, tilshunoslik maydonida ish olib borayotgan olimlar o'zlarining ilmiy ishlarida psixolingvistika, sotsiolingvistika sohalarini psixologiya, sotsiologiya va adabiyotshunoslik bilan bog'lab o'rganmoqdalar.

Shu o'rinda o'zbek tilshunosligiga kirib kelayotgan yangi tilshunoslik sohaları sotsiolingvistika, psixolingvistika sohaları haqida to'xtalib o'tsak. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu yo'nalishlar gender tilshunoslik bilan doimo o'zaro aloqadorlikda turadi.

Sotsiolingvistika – ijtimoiy munosabatlarda tilning tutgan o'rnini, til taraqqiyotini va tilning funksional jihatlarini hamda jamiyat til uchun, til esa jamiyat uchun xizmat qilishini o'rganadi.

Sotsiolingvistikani fan sifatida o'rganish jarayonida uning umuminsoniy hamda siyosiy xususiyatlari, jumladan, til va jamiyat, til va mafkura, til va tafakkur, til va xalq, til va yosh, til va jins, davlat institutlarida til, til taraqqiyotini rejalashtirish, shuningdek, tilning falsafiy xususiyatlarini o'rganish lozim bo'ladi.

Professor B.Golovin “sotsiolingvistika” fanini tor va keng ma'noda tadqiq etishni maqsadga muvofiq deb biladi. Chunki sotsiolingvistika funksional (vazifaviy) ma'no kasb etib, u til qurilishi taraqqiyotiga xizmat qilishini ta'kidlaydi va tilning vazifaviy xususiyatlari bilan bog'liq,- degan xulosaga keladi³.

Shunday qilib, sotsiolingvistika haqida fikr yuritish qaysidir ma'noda til va jamiyat bilan bog'liq tushunchalarni nazariy jihatdan tekshirish va o'rganishni taqozo etadi. Demak, jamiyat a'zolari bo'lgan erkak va ayol murojaatidagi o'ziga xoslikni o'rganuvchi gender tilshunoslik ijtimoiy lingvistika bilan chambarchas bog'liqlikda turadi.

Tilshunosligimizdagi yangi yo'nalishlardan yanabiri bo'lgan psixolingvistika tilshunoslik va psixologiya fanlariga oid hodisalarni uyg'unlikda tekshirishga qaratilgan.

³www.wikipedia.uz

Psixolingvistika – nutqning hosil bo'lishi, shuningdek, nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini ularning til tizimi bilan o'zaro bog'lanishi holatini o'rganuvchi fan; psixologiya va lingvistikaning sintezidan paydo bo'lgan.

Psixolingvistika inson nutqiy faoliyati modelini va psixofiziologik nutqiy shakllanishini ishlab chiqib, ularni psixologik eksperimentlar yo'li bilan tekshiradi. Tadqiqot manbayi bo'yicha tilshunoslikka yaqin bo'lgan psixolingvistika o'z tekshirish usullari bo'yicha psixologiyaga yaqin turadi⁴.

Demak, erkak va ayolning yoshi, yashash tarzi, jamiyatda tutgan o'rni hamda ularning ruhiyati bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlaridan kelib chiqib gender tilshunoslik yuqoridagi tilshunoslik sohalari bilan o'zaro munosabatda turadi.

Million yillar davom etgan tarixiy-madaniy va bioantropologik rivojlanish, ayniqsa, differentsatsiya, mehnat taqsimoti ayol va erkakda o'ziga xos hayot tarzini, fikrlashni, kasb-kor tanlash ko'nikmalarini, muloqot usullarini shakllantirdiki, aynan ushbu fikrlarni o'rganish, ular mohiyatini ochib berish gender falsafasining asosiy vazifasidir. Demak, jinslararo munosabatlarni tadqiq qilish, avvalambor, falsafaning vazifasi hisoblanadi. Lekin bugungi kunda “gender sotsiologiyasi”, “gender psixologiyasi”, “gender pedagogikasi” kabi ilm-fan sohalari yuzaga kelmoqda. Shu boisdan ham bugun ilmiy adabiyotlarda, tadqiqotlarda va bahs-munozaralarda “gender” atamasi, u bilan bog'liq “gender munosabatlar”, “gender xususiyatlar”, “gender tenglik”, “gender madaniyat”, “gender taraqqiyot”, “gender sotsiologiya”, “gender psixologiya” kabi iboralar ko'p ishlatilmoqda. V.Alimasov ta'biri bilan aytganda, keyingi yigirma yilni “gender izlanishlar davri” deb atash mumkin.

1.2. Tilshunoslikda gender munosabatning o'rganilishi

Ma'lumki, sotsiologiya hamda psixologiya fanlarida “gender” tushunchasi “biologik jins” tushunchasidan farqlanuvchi ijtimoiy tushuncha hisoblanadi. Buning asosida jamiyatda erkak va ayollarga xos bo'lgan xususiyatlar negizida shakllangan “ijtimoiy jins” tushunchasi yotadi. Boshqacha aytganda, gender

⁴O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

tadqiqotlarda uzoq vaqt davomida odamlar dunyoqarashida shakllangan, jamiyat tomonidan qabul qilingan *erkaklik* va *ayollik* (*maskulinnost* va *feminizm*)ka xos axloq me'yorlari tushuniladi. Ana shunday axloq me'yorlari ichida **muloqot xulqi** masalasi markaziy masalalardan biri bo'lganligi bois genderologik muammolarni lingvistik aspektda o'rganish zarurati tug'ildi va genderolingvistika ana shu zarurat tufayli alohida bir soha sifatida paydo bo'ldi⁵.

Til va kommunikatsiya sohasida gender muammolari tilshunoslikda bugun paydo bo'lgani yo'q. Bu muammo o'tgan asr boshlarida ma'lum darajada jahon tilshunoslarining diqqatini o'ziga jalb qilgan va bu borada E.Sepir, O.Yespersen, F.Mautner kabi olimlar tomonidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan edi. Hozirgi jamiyatda erkak va ayol nutqi taraqqiyoti eng dolzarb muammolardan bo'lib turibdi. Bu muammoning paydo bo'lishi va shakllanishi shu bilan xarakterlanadiki, o'zining biologik va jinsiy namoyon bo'lishi va ruhiy his qilish o'rtasidagi farqni anglagan inson o'zining gender yaxlitligini yo'qotadi, ma'lum ijtimoiy qiyinchiliklarga duch keladi. XX asr boshlaridayoq bir qator tadqiqotchilar biologik jins va kommunikatsiya o'rtasidagi munosabatni aniqlashga kirishgan edilar. 70- yillarning o'rtalarida bir guruh ruhshunoslar erkaklar va ayollar o'rtasidagi kommunikativ farqlarni aniqlashga va shu asosda dolzarb ijtimoiy muammolarni hal qilishga gender nuqtayi nazaridan yondasha boshladilar. Ruhshunoslardan keyin tilshunoslar shaxsning gender jihatlarini til tizimida, nutq faoliyatida, kommunikatsiya xususiyatlarida namoyon bo'lishini aniqladilar. Bu esa erkak va ayol nutqi orasidagi farqlarni tadqiq etuvchi yangi bir yo'nalish sotsiolingvistikaning shakllanishiga yo'l ochib berdi.

Bu yo'nalishda jahon tilshunosligida F.Mautner, E.Sepir, O.Yespersen, Ye.I.Goroshko, O.L.Kamenskaya, A.V.Kirilina, O.V.Ryabovlar, V.V.Potapov, A.Bodrova, D.Semyonova, Ye.Grisenko, Ye.Kartushina, A.Kostikova, Ye.Nazarova, Ye.Badmayeva kabi tadqiqotchilar tomonidan gender tadqiqi bo'yichi jiddiy ishlar amalga oshirilgan. Jahon miqyosida genderolingvistika sohasida muntazam xalqaro konferensiyalar ham o'tkazilmoqda. Olib borilgan

⁵Qarang: Qurbonova M. Genderolingvistik tadqiq yangi paradigm sifatida // O`TA, 2014/ №2, 43-b.

tadqiqotlarda mutaxassislar ko`pincha ikki jihatga: 1) ayol va erkaklar ma'lum bir voqelik yoki uning parchasini tasvirlashda, yoki boshqa holatlarda fikrlarini o`ziga xos tarzda bayon etishi (nutqning gender xususiyati)ga, 2) muayyan til tizimida ayollik va erkaklik belgilari bilan bog`liq tushunchalarni ifodalovchi lingvistik vositalarning mavjudligi (til tizimida ayol va erkakni bir-biridan ajratish, farqlashga xizmat qiluvchi til birliklarini belgilash)ga e'tibor qaratishgan.

Tilshunoslikda gender parametrlarning qo`llanishini tadqiq etish tilshunoslikning ayol yoki erkaklarga xos konstruktiv tamoyillarini o`rganishda ham muhim ekanligi o`z isbotini topdi. Tilshunoslikda genderologik tadqiqotlardan ko`zlanadigan **asosiy maqsad** ayol va erkak nutqiga xos bo`lgan, har ikkala jins vakillariga xos uslubda voqealangan yozma yoki og`zaki matnlarni farqlash ko`rinishidagi "lisoniy asimmetriya" hodisasining turlari va sabablarini aniqlashdir.

Nemis tilshunosi Fris Mautner o`z kuzatishlarida tildagi mavjud gender tavofutlar erkak va ayollarning nutqiy faoliyatlarida ajralib turuvchi bir qator jihatlariga bog`liq ekanligini antik teatr an`analariga bog`lab talqin qiladi. Tarixdan ma'lumki, ilgari antik teatrlarda ayollar roli erkaklar tomonidan ijro etilgan va shu tariqa o`ziga xos bo`lgan «erkaklar tili» va «ayollar tili» yuzaga kelgan. Keyinchalik esa ayollar tilining o`ziga xosligi teatrdan tashqarida, turli jamoat joylarida ham saqlanib qolgan. Bu XVIII-XIX asrlarda turli joylarda fikr ifodalashda, munosabat bildirish va baholashda, til birliklaridan foydalanishda erkak va ayollarning huquqlari teng bo`lmaganligi bilan ham bog`liq. Bunday qarash amerikalik Edvard Sepir tadqiqotlarida ham ta'kidlanadi. Sepir erkak va ayol nutqidagi jinsiy tavofutlar yechimini til birliklari vositasida namoyon bo`luvchi ijtimoiy tenglik mezonlaridan axtaradi.

Daniyalik tilshunos Otto Yespersen esa e'tiborini erkaklar va ayollarning tildagi mavjud birlikardan foydalanishiga, ularning so`z qo`llashda o`ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratdi. U o`z tadqiqotlarida ayollarning nutqiy vaziyatdan kelib chiqib ko`proq hissiyotga berilishiga, shuning uchun

evfemizmlardan ko`proq, ba`zan esa imkonsiz qolganda vulgarizmlardan foydalanishga majbur bo`lishga moyilligini ko`rsatib beradi.⁶

V.V.Potapov⁷ til va gender munosabatlari muammosini, shuningdek, ayol va erkak nutqini o`rganish borasida lingvistik tadqiqotlarni quyidagi asosiy yo`nalishlarga ajratish mumkin, deb hisoblaydi:

- ayollar va erkaklarning idroki, ongidagi tilning fonetika, morfologiya, semantika va sintaksi kabi sathlar bo`yicha tafovutlarni aniqlash;

- ayol va erkak nutqining ijtimoiy genezisiga bo`lgan yondashuv, ya`ni jamiyatdagi ijtimoiy vazifalarning qayta taqsimlanish xususiyatlari bilan izohlanuvchi semantic tafovutlarni aniqlash;

- ayollar va erkaklar nutqining o`ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ayol va erkaklar tilini tadqiq qiluvchi lingvistik nazariyalarni ishlab chiqish;

- aniqlangan ko`rsatkichlarni kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan tushuntirib berish. Bu yerda nafaqat tafovutlarning takrorlanish darajasini, balki dunyo manzarasining turli jihatlarini bilan aloqalarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatta, olimlarning qarashlari turlicha, subyektiv munosabatdan kelib chiqib ayrim kamchiliklardan holi bo`lmasa-da, ular keyinchalik tilshunoslikda nutqiy faoliyat tadqiqida gender jihatlarini ham e`tiborga olish lozimligini isbotladilar.

Lisoniy hodisalar mohiyatini yoritishga gender nuqtayi nazardan yondashuv rus tilshunosligida ham kuzatiladi. Rus tilshunosligida Ye.I.Goroshko, O.L.Kamenskaya, A.V.Kirilina, O.V.Ryabovlar, V.V.Potapov, A.Bodrova, Ye.Kartushina, A.Kostikova, Ye.Nazarova, Ye.Badmayeva kabi tadqiqotchilar tomonidan tilshunoslikda gender xususiyatlarni tadqiq etish borasida amalga oshirilgan ishlarda til va gender munosabati, sotsiopragmatik xususiyatlari ma`lum darajada tahlilga tortilgan. Bu borada muntazam ravishda xalqaro konferensiyalar ham o`tkazilib kelinayotganligi ham fikrimizni dalillaydi.

⁶ Alimova B. Badiiy matnda "lisoniy shaxs" namoyon bo`lishining sotsiopragmatik talqini. Magistr.akad.daraj.olish...diss. – Samarqand, 2014. -58-b.

⁷Qarang: Qurbonova M. Genderolingvistik tadqiq yangi paradigm sifatida // O`TA, 2014/ №2, 44-b.

Shuni alohida qayd etish lozimki, jahon tilshunosligida muloqotning gender xususiyatlarini aniqlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgani holda o'zbek tilshunosligida ayrim ishlarda yo'l-yo'lakay bildirilgan ba'zi fikrlarni hisobga olmaganda ko'zga ko'rinarli ishlar deyarli yo'q. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida Sh.Iskandarova, S.Mo'minovlarning ilmiy tadqiqotlarini hisobga olmaganda xotin qizlar nutqini o'rganishga bag'ishlangan ijtimoiy lisoniy aspektda olib borilgan ishlar juda kam. Shuning uchun atoqli tilshunos olimlar Sh.Safarov va S.Boymirzayevalarning «Jamiyatda jinsga oid faoliyat ko'rsatmalari, me'yorlarini belgilovchi ma'lum qoidalar, o'ziga xosliklar, tafovutli holatlar paydo bo'ladi va shunga nisbatan ijtimoiy hayotda ayollarga va erkaklarga xos bo'lgan ayricha tushunchalar, g'oyalar tug'iladi. Ijtimoiy guruh sifatida toifaga ajratiladigan ayollar va erkaklarning nutqiy, lisoniy faoliyatini ikki turdagi, juda ko'p o'ziga xosliklari, farqli jihatlariga ega bo'lgan alohida uslublar sifatida o'rganish lozim»⁸ligi to'g'risidagi fikrlariga to'liq qo'shilish mumkin.

Ko'rinadiki, o'zbek tilshunosligida hali gender lingvistika atroflicha o'rganilgani yo'q. Erkak va ayol faqat biologik jihatdangina farqlanmaydi, balki ularning nutqiy faoliyati, xatti-harakati va imo-ishoralarida ham o'xshashlik va tafovutlar ko'p. Ayniqsa, ular nutqining asosi bo'lgan murojaatlar o'ziga xosdir. Bu o'zgachalikni aniqlash biz filolog talabalarning oldimizda turgan zimmalardan hisoblanadi.

1.3. Murojaatda gender xoslanishlar

Ming yillardan beri bir turga mansub bo'lgan erkak va ayol bajaradigan vazifasi, jamiyatda tutgan o'rni jihatidan bir-biridan farqlanar ekan, tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham bu ikki jins o'zaro ajralib turadi. Xususan, lisoniy va nolisoniy birliklarning ularga nisbatan qo'llanishi hamda ularning lisoniy hamda nolisoniy birliklarni qo'llashlarida bu ikki jins vakillarida sezilarli farqlar kuzatiladi. Ko'pgina lisoniy va nolisoniy birliklar u yoki bu jinsga tegishli ekanligi bilan gender xoslanishga ega.

⁸ Ko'rsatilgan manba. Alimova B. 60-b.

Ma'lumki, og`zaki so`zlashuv nutqidan tortib yozma matnlargacha gender jihatdan farqlanadi. Matnlar tuzilishi tekshirilganda, ayollar va erkaklar nutqining fonetik, leksik-frazeologik, grammatik, stilistik va boshqa turdagi farqlari yaqqol ko`zga tashlanadi.

Ayollar va erkaklar nutqida fonetik xususiyatlar ham farqlanadi. O`zbek tilida ayollar nutqida unli fonemalarni cho`zib talaffuz qilish (*k-a-a-a-tta*, *uz-o-o-o-q*, *bal-a-a-a-nd*), undosh fonemalarni ikkilantirish (*ma-z-z-za*, *esh-sh-shak*, *bash-sh-shara*)kabi fonetik hodisalar ko`p uchrasa, erkaklar nutqida bunday holat ancha kam kuzatiladi. Ayollarda mantiq urg`usi juda faol qo`llanadi, pauza esa erkaklar nutqiga nisbatan juda qisqa bo`ladi.

Ayollar va erkaklar nutqida qo`llanuvchi leksemalar ham o`ziga xos ahamiyatga ega. Tildagi yangilanish jarayonlari ayollarga nisbatan erkaklar tomonidan tez qabul qilinib, ilmiy va kasb-hunarga oid yangi leksemalar erkaklar nutqida ko`proq va faolroq. Shuningdek, ayollar kundalik turmushda neologizmlardan unumli foydalangan holda, rasmiy muloqotda undan qochishga harakat qilishadi.

Ayol kishi tabiatan nafosat sohibalari bo`lganligi sababli, suhbat jarayonida ham jozibador va bo`yoqdor leksemalarni, shaxsiy munosabat ifodalovchi so`zlarni, ijobiy bo`yoqdor so`zlarni ko`proq qo`llaydi. Suhbat predmeti biroz bo`rttirilgan holda bo`ladi. Emotsional holatlar: hayratlanish, sevinish, qo`rqish, nafratlanish, xafa bo`lish kabi ruhiy-fiziologik jarayonlarni ularda kuzatishimiz mumkin.

O`zbek tilida ayollar va erkaklar nutqi sintaktik jihatdan ham tahlil qilinadi. Ayollar suhbatdoshining fikriga qo`shilish yoki qo`shilmasligiga va shaxsiy munosabat ifodalashda suhbatdoshini xafa qilib qo`ymaslikka, iloji boricha uning ko`ngliga yoqadigan tarzda murojaat qilishga harakat qilishadi. Masalan, *keyinroq borsak bo`lmaydimi*, *keyinroq borsak bo`lar ekan*, *keyinroq boraylik*, *keyinroq bora qolaylik*, *keyinroq bora qolaylik*, *maylimi?*, *keyinroq borsak nima deysiz?*kabi. Erkaklar esa bu holatda *keyinroq boramiz*, *keyinroq borsak bo`ladi*, *keyinroq ham borsak bo`ladi*, *keyinroq borsak ham bo`laveradi* ifoda shakllaridan foydalanishadi.

Ayollar va erkaklar muloqot madaniyati o'ziga xos xususiyatga ega. Ular nutqining farqli xususiyatlari borasida tilshunoslikda bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lib, ayrim xalqlarda ayollar nutqi alohida tadqiqot sifatida maydonga kelgan. Bunday farqlanish muhim ahamiyat kasb etib, muloqot madaniyatida muhim o'rin tutadi. O'zbek tilshunosligida keyingi yillardagi tadqiqotlarda oz bo'lsa-da, bu haqda yoritib o'tilgan. Jumladan, S.Mo'minov, Sh. Iskandarovalarning ilmiy tadqiqotlarida buni ko'rish mumkin⁹. Muloqotning jins jihatidan xoslanishi muhim ahamiyat kasb etib, sotsiolingvistikaning o'rganish muammolaridan biri sanaladi. Murojaat shakllarini jins jihatidan tahlil qilganda, erkak va ayol kishilarning nutqida qo'llaniladigan murojaat shakllari hamda erkak va ayol kishiga nisbatan qo'llaniladigan murojaat shakllari tarzida tahlil qilish lozim.

O'zbek tili va uning shevalariga mansub iboralar ham jins ko'rsatish xususiyatiga ega. Chunki o'zbek tilida iboralar ayollar nutqida yoki erkaklar nutqida ishlatilish ko'lamini jihatidan ham farqlanib turadi. Masalan, bu iboralarning ko'pchiligi nutqiy jarayonlarda erkak va ayollarga nisbatan qo'llanib, ularga xos xususiyatlarni ta'sirchan va obrazli ifoda etishi bilan ajralib turadi.

Nutqda uchraydigan shunday ibora va so'zlar borki, ular faqat ayollar nutqiga xos yoki aksincha ayrim birliklar erkaklar nutqiga xoslangan. Masalan, erkaklar va ayollar tomonidan qo'llanuvchi iboralar bir-biridan tubdan farqlanadi. O'zbek tilida shunday iboralar borki, ular faqat erkaklar nutqidagina qo'llaniladi. Jumladan, *"Burnini yerga ishqamoq"*, *"Dabdalasini chiqarmoq"*, *"Jig'ini ezib qo'ymoq"*, *"Abjag'ini chiqarmoq"*, *"Yulduzni benarvon uradigan"* kabi ko'plab iboralar asosan erkaklar nutqida qo'llanishi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Xotin-qizlar nutqiga esa ko'proq *"aylanay"*, *"o'rgulay"*, *"qoqindiq"*, *"girgitton bo'lay"* singari so'z va iboralar xos bo'lib, ular turli nutqiy vaziyatlarda ijobiy ma'no nozikliklarini ifodalovchi leksik vositalar hisoblanadi.¹⁰ Shuningdek, ayollar va erkaklar tomonidan qo'llanish xususiyatiga ko'ra ayol va erkakka nisbatan

⁹S. Mo'minov. O'zbekmuloqotxulqiningijtimoiy – lisoniyxususiyatlari. filol. fan. dok. ..diss., SH. Iskandarova. O'zbeknutqodatiningmuloqotshakllari: fillol. fan. nomz..dissT.,1993 y

¹⁰Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyati. Filol. fan. dokt....dis. avtoref.-T.,2000.-B.33.

qo'llanilishiga ko'ra iboralar ham jinsga munosabati nuqtayi nazaridan farqlilik kasb etadi.

Tarixiy davrda, tarixiy romanlarda ham erkak va ayollar nutqining o'ziga xos farqli holatlarini ko'rish mumkin. Bu farqli holatlar murojaat shakllarida o'z ifodasini topgan. Murojaat shakllari yana shu jihati bilan xarakterliki, ularda so'zlovchi va tinglovchining jinsi yaqqol namoyon bo'ladi. Buni oddiy muloqot madaniyatimizda ham uchratish mumkin. "Ayollar nutqida "ovsin", "dugonajon", "egachi", shuningdek turmush o'rtoqlariga qarata "dadasi" murojaat shakllari mavjud"¹¹. Tarixiy asar leksikasida, asosan, oliy tabaqadagi ayollarga nisbatan "begim", "xonim", "hazrat begim", "oliy nasab begim" kabi murojaat shakllari qo'llangan. "Egachi" murojaat shakli SH. Iskandarova dissertatsiyasida ayollarga xos bo'lgan murojaat shakli deb qaraladi. Ya'ni ayol adresant muloqoti jarayonida qo'llanadi. Bu murojaat shakli XIV- XV asrlarda erkaklar nutqida ham opa-singilga nisbatan qo'llanilganligini ko'rish mumkin. Asosan, rasmiy sharoitda qo'llaniluvchi bu murojaat shakllari nutqning norasmiy sharoitida qon – qarindoshlik terminlari bilan almashadi, ya'ni ijtimoiy guruh a'zolari o'z sotsial rollarini o'zgartirsalar, ular nutqi ham shunga muvofiq o'zgaradi. Hozirgi muloqot madaniyatimizda qo'llanilmaydigan bu murojaat shakllari tarixiy davrda ayollarga nisbatan faol qo'llangan.

"Xolamullo", "hazrat momo" murojaat birliklari qo'llanilgan bo'lib, Samarqand va uning atrofidagi viloyatlar shevasida yoshi katta ayol tinglovchiga nisbatan qo'llaniladi. "Momo" qarindoshlik termini ko'proq Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida keksa yoshdagi ayol adresatlarga nisbatan ishlatiladi. Murojaat shakllarining yosh jihatdan ijtimoiy xoslanishi o'zbek muloqot madaniyatining asosini tashkil qiladi, chunki boshqa millatlardan farqli o'laroq, o'zbeklar milliy mentalitetida shunday hurmat kategoriyalari bor-ki, ular kommunikantlarning yoshini yaqqol namoyon qiladi. Bunday holatni nutqiy etiketlarning barchasida kuzatish mumkin.

¹¹SH. Iskandarova. O'zbeknutqodatiningmuloqotshakllari, fillol. Fan. Nomz..Diss. avtoref. – B 19.

Yoshga va jinsga oid farqlar soʻzlovchi nutqida oʻz ifodasini topadi. Shuning uchun soʻzlovchining nutqida qoʻllanuvchi soʻzlar, frazeologizmlar, gaplarning grammatik qurilishi u haqda muayyan maʼlumotlar beradi. Oʻtkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» asaridan olingan quyidagi matndagi erkak va ayol nutqiga eʼtibor beraylik:

– *Oʻzing ahmoqsan! – dedi Komissar zarda bilan. – Necha marta aytdim: kuyovingni sudga ber! Moyagini bir burasa, qizingga dom olib beradi. Yo uchastkasining yarmini kesib beradi.*

«Bir kamim qizimning kundosh bilan bir hovlida turishi qoluvdi, bolalarini oʻksitib», – deb oʻyladi Qurbonoy xola dili ogʻrib.

– *Mayli, – dedi sekin. – Xudoga soldim. Komissar kuldi. Kulishi gʻalati. Xuddi odamni mayna qilgandek «xex-xex-xex», deydi.*

– *Xudoning sendan boshqa ishi yoʻq! Falonchi bandamning arzi holini eshitaman, deb koʻzi uchib turibdi.*

«E-e! Tezroq daf boʻlsang-chi! Sen bilan gaplashib yurakni qon qilgandan koʻra...».

Muloqotda ishtirok etgan ishtirokchilardan Qurbonoy xola turmush qiyinchiliklari oldida oʻzini yoʻqotmagan oddiy farrosh. U odob, hayo mezonlariga amal qilib boshqalar toʻgʻrisidagi fikrlarini oshkora bayon qilmaydi. Uning munosabati badiiy matnda koʻproq ichki nutq shaklida beriladi. Yozuvchi ichki monolog vositasida ayollar nutqiga xos gender xususiyatlarni saqlab qolgan. Muloqotning ikkinchi ishtirokchisi Komissar esa yoshligidan shoʻrolar mafkurasi taʼsirida ulgʻaygan, umri davomida shu mafkura manfaatlarini himoya qilgan. Uning nutqida hammaga shubha bilan qarash, ayollarni mensimaslik, beshafqatlik xususiyatlari kuchli. U suhbatdoshining ayol kishi ekanligini hisobga olmay, tortinmay «ahmoq», «moyagini buramoq» kabi soʻz va iboralarni qoʻllaydi. Bu uning axloqsiz, uyatsiz va madaniyatsiz kishi ekanligidan dalolat beradi. Soʻzlovchining kim ekanligi namoyon boʻlishida haqorat ifodalovchi soʻzlarning ham oʻz oʻrni bor.

Ko`rinadiki, fikr ifodalash uslubining o`ziga xosligi, gaplarning grammatik qurilishi, emotsional-ekspressiv, baholovchi birliklarning ishtirok etishiga ko`ra ayollar va erkaklar nutqi keskin farqlanadi. Bu esa erkak yoki ayolning jamiyatda egallab turgan ijtimoiy mavqeyi, turmush tarzi, voqelik faktlariga munosabati, lisoniy zaxirasi kabi omillar bilan bog`liq.

II BOB. Murojaat shakllarida gender munosabatning ifodalanishi

2.1. Muloqot jarayonida murojaatning o`rni

Olamni obyektiv borliqni tadqiq etish, bilish yo`llari sifatida tafakkurning turli shakllari mavjud. Insoniyat butun koinot, borliq haqida fikr yuritganda, dastlab mifologik tafakkur shakliga asoslangan. Keyinchalik to'plangan amaliy tajribalar, hayot taraqqiyoti, ijtimoiy ong evolyutsiyasi tufayli ong va tafakkur ham rivojlangan: tafakkurning ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy-estetik shakllari qaror topa boshlagan.

Insonning fikrlash jaravoni uning tili bilan bog`lanadi. Til va tafakkur aloqadorligi haqida to`xtalar ekan, Ye. N. Panov mashhur faylasuf va psixologlar fikrini keltirib o'tadi: "O`tmishning ulug` faylasuflari tilning tafakkur ijaravoni bilan aloqasini doimo ta'kidlab kelganlar. XVIII asming mashhur faylasufi Immanuil Kant yozadi: "Fikrlash – bu, o`zning o'zi bilan gaplashishni anglatadi... o`zning o`zini (esda qolgan narsani tasavvur etish orqali) botiniy eshitishini anglatadi.»¹² Shu ma'noda P.V. Kopnin yozadiki, "til bilimning belgilar sistemasi ko'rinishida yashash shaklidir"¹³

Tilning barcha vazifalari ham tafakkur bilan bog`lanadi. A.G.Spirkin bu masalaga shunday yondashadi: «...til avval boshdan tafakkurning umumlashtiruvchi ishida boshqa hech bir narsa uning o`rnini bosa olmaydigan vazifani bajaradi. Faqat til tufayli inson yakka predmet va hodisalar bilimidan ularning tushuncha shaklidagi umumlashgan in'ikosiga o'tish imkoniga ega bo'ladi». Borliqhaqidagibarcha bilimlar inson xotirasi va tilida yashaydi. "...lingvist V.V. Martinov, - deb yozadi Ye.N, Panov, - tilni bizni o`rab turuvchi tashqi reallik bo'lgan «1-Borliq» dan farqli ravishda «2-Borliq» deb juda topib nomlagan». Til tafakkurni moddiylashtiruvchi vosita. Tafakkur o`zicha qiyofalanmaydi, u til orqali va til materialida o`z qiyofasiga ega bo'ladi – real shakl kasb etadi, mavhumlikdan chiqadi va konkretlik shaklini oladi. "Inson

¹²Xoliqova Z. Murojaat shakllarida gender xususiyatlari. Bak.dar.ol...BMI. – Andijon, 2013. -20-b.

¹³Ko`rsatilgan manba. Xoliqova Z. 21-22-b.

nihiyatining eng muhim faoliyati - til, unga noyob muloqot turi - *lisoniy* muloqotni amalga oshirish imkoniyatini beradi".

Narsa-predmet va voqea-hodisa haqidagi yangi tushuncha paydo bo`lib, tilda o`z shaklini topa olmayotgan bo`lsa, oldindan tilda mavjud bo`lgan fonetik "surat" – so`zdan foydalaniladi, unga yangi vazifa – yangi ma`no yuklanadi. Chunki tildagi asosiy va yetakchi jihat ma`nodir. Bu haqda I.L.Andreev tomonidan ta`kidlangan A.N.Leontavning quyidagi fikrini keltirish o`rinlidir: "Insonda hissiy obrazlar yangi xususiyat – ma`nolilik xususiyatiga ega bo`ladi. Inson ongini shakllantiruvchi eng muhim narsa ham ma`nodir".

Ma`no va tushunchasiz til mavjud bo`lmaydi. Kishilar o`z murojaat va munosabatlarida ana shu ma`noga asoslanadilar. Aks holda til o`z vazifasini bajara olmaydi, u o`zining asosiy vazifasini faqat ma`no va tushunchalar tufayli bajaradi, har qanday xabar, ma`lumot ma`no hamda tushuncha asosida shakllanadi va yuzaga chiqadi. Inson va jamiyatning o`zi ham ma`no va tushunchalar, til va nutq tufayli mavjuddir. Agar "...jamiyatning barcha a`zolari uchun umumiy va tushunarli til bo`lmasa, jamiyatdagi ishlab chiqarish to`xtaydi, jamiyat sifatida yashash tugaydi va u parchalanib ketadi". Demak, insonning inson va jamiyatning shakllanish jarayonida ham tilning o`rni katta va shuning uchun ko`p olimlar "inson va jamiyat paydo bo`lishi jarayonidagi zaruriy komponentlardan biri til va nutqning shakllanishi bo`ldi" deb hisoblashadi.

Ma`lumki, tilning bosh vazifasi xabar berish va xabar qilishning vositasi bo`lishdir. Tilning bu vazifasi kommunikativ funksiyasi deb yuritiladi. Lekin inson tili faqat kommunikatsiya bilangina chegaralanib qolmaydi. Agar shunday bo`lganda qushlar va hayvonlarning muloqot vositasi bo`lgan tovushlardan farq qilmagan bo`lar edi. Bu borada Y.N.Panov yozadi: "...hayvonlar "tili" – qanchalar qulay bo`lmasin, faqat kommunikatsiya vositasidir; inson tili olamni bilish va shuning bilan birga, kishilararo muloqot mexanizmidir". Til insonning ruhiyati bilan ham bog`lanadi, "u inson ruhiy qudratini doimiy faoliyatga yo`naltiruvchi hodisalardan biridir".

Til va uning birliklari kishilar tomonidan nutqda qo'llanganda, talaffuz etilganda yuzaga chiqadi va shu tufayli til o'zining asosiy vazifasini – aloqa vositasi bo'lish funksiyasini bajaradi. Lekin tilning funksiyasi bu bilan chegaralanib qolmaydi. Uning barcha funksiyalari katta ehtiyoj tufayli ana shu ehtiyojga javob tarzida yuzaga kelgan. Nafaqat vazifalar, tilning o'zi ham ehtiyoj mahsulidir, uning “vujudga kelishi insoniyatning ichki ehtiyoji bilan shartlangan”. Kishilar bir-biriga til birliklaridan foydalanib fikr uzatganlar, o'zlarining turli munosabatlarini bildirganlar, ehtiyojlarini qondirganlar. Bu jarayonda - munosabat bildirish, fikr uzatish, qabul qilish jarayonlarida – albatta, bir-birlariga murojaat qilingan. Murojaatning o'zi ham ana shu tarixiy jarayon va oqimning mahsuli sifatida shakllangan. Chunki “...inson qayerda paydo bo'lmasin, insonligicha qoladi, u boshqa o'zi singarilar bilan muloqotga kirishadi, institutlar tashkil etadi, qonunlar yaratadi...”.

Tilning asosiy funksiyasi ham, bundan tashqari qator vazifalari ham u yoki bu darajada, albatta, murojaat bilan bog'lanadi. Masalan, apellyativ vazifa – chaqiruv bevosita murojaat bilan aloqadordir. Chaqiruv tinglovchiga qaratilgan bo'ladi va bu orqali u nutqni eshitish hamda qabul qilishga chaqiriladi. Aloqa o'rnatish (контактоустанавливающая) funksiyasi zaminida ham murojaat bilan bog'liq tushunchalar yotadi: bu vazifa tinglovchini xabar – ma'lumotni qabul qilishga tayyorlash, uning e'tiborini tortish orqali bajariladi. Umuman tilning barcha vazifalari – kommunikativ, emotiv, volyuntativ, aloqa o'rnatish – sotsiativ, reprezentativ funksiyalari so'zlovchi va tinglovchi orasidagi turli tuman munosabatlarni ifodalaydi. Chunki til har doim fikr uzatish (bu so'zlovchi uchun) hamda fikr qabul qilish, anglash (bu tinglovchi uchun) vositasi bo'lib kelgan. Murojaatning mazmunan har xil shakllanishi – quvonch, qo'rqinch, gina, iltifot, nafrat kabi ma'no ottenkalari qo'shilgan holda ifodalanishi – eng avvalo ijtimoiy muhit va sharoitdan kelib chiqadigan munosabatga bog'liq. Til esa ana shu munosabatni qanday bo'lsa o'shanday, asliga mos holda ro'yobga chiqishi uchun vosita bo'ladi.

Odatda, murojaat shakli haqida gapirilganda, eng avval, tinglovchi nazarda tutiladi. Aslida bu murojaatning ikkinchi obyektidir. Tinglovchi ham ijtimoiy – mantiqiy obyekt sifatida, ham lingvistik obyekt sifatida bir-biriga to'la mos tushadi: tinglovchi – sen, ya'ni ijtimoiy shaxs sifatida – o'zga. Buning nutqdagi ifodalanishi – mantiqiy-grammatik shakllanishi ham o'zga, ya'ni ikkinchi shaxs, birlik yoki ko'plik. Bu ijtimoiy o'zga – grammatik ikkinchi shaxs so'zlovchining ziddi bo'lib, u fikr qabul qiluvchi sifatidagi ijtimoiy figuradir – nutq va u orqali ifodalanayotgan fikr unga qaratilgan.

Aslini olganda, aloqa-aralashuv va ijtimoiy munosabatlar yuzaga chiqish jarayoni oqimida murojaatning o'zgaga bo'lishi ikkinchi bosqichdir va ayni paytda u yuzaga chiqqan real hodisadir. Jarayonning birinchi bosqichi mavhum bo'lib, u abstrakt holda kechadi. Chunki so'zlovchi har qanday fikr bildirish, xabar-ma'lumot uzatish oldidan o'ziga-o'zi murojaat qiladi, buyruq beradi. Ma'lum xabarni berish yoki bermaslik, so'rash yoki so'ramaslik haqida muayyan to'xtamga kelib hukm chiqaradi. Bu o'ziga – birinchi shaxsga yo'naltirilgan jarayondir, lekin uning natijasi va odatda nutqdagi ifodalanuvchi qismi ikkinchi shaxsga bo'lgan murojaat tarzi sifatida shakllanadi.

Ko'rinadiki, ijtimoiy munosabatlar va muloqot jarayonida birinchi bosqich ichki nutq bilan, ya'ni tashqi olam uchun talaffuz etilmaydigan, til materiyasiga pinhoni o'raglan nutq bilan bog'lanadi – tovushsiz nutq bilan bog'lanadi, ikkinchi bosqich esa, tashqi nutq bilan, ya'ni talaffuz asosida reallashgan ro'yobga chiqqan tovushli nutq bilan bog'lanadi.

Birinchi bosqichning murojaat shakli badiiy so'z san'atida katta poetik vazifa bajaradi. U epik turga mansub asarlarda psixologik tahlil uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Lirikada esa doimiy qahramon lirik qahramon deb ataluvchi shoir – muallifning o'zi bo'lganligi tufayli so'zlovchining o'ziga murojaati, ko'p hollarda o'ziga munosabatini belgilaydi.

N.D.Arutyunova amaliy fikr-mulohazaning psixologik va etimologik faktorlar munosabati haqida gapirar ekan, T.Gobbsning quyidagi fikrini keltiradi: “Ayni bir narsaga inson qalbida istak, nafrat, umid va qo'rqinch paydo bo'lsa

hamda o`sha narsaning yuzaga chiqish yoki chiqmasligining yaxshi va yomon oqibatlari haqidagi fikr ongimizda navbatma-navbat almashinib tursa,..qalbimizda almashinib turgan istak, nafrat, umid va qo`rqinchlar barchasi amalga oshirilgunga qadar yoki mumkin emas deb hisoblangunga qadar o`tgan davr o`ylash davri , deb ataladi”...

Mazkur shu almashinuvlar jarayonida inson o`ziga murojaat qiladi, fikr-mulohaza yuritilayotgan, o`ylanayotgan narsani, ongidan o`tayotgan o`z fikrini yuzaga chiqarish yoki chiqarmaslik to`xtamiga kelgunga qadar bo`lgan jarayon insonning o`ziga murojaat qilishning eng faol jarayoni, eng faol davri sanaladi. Bundan ko`rinadiki, murojaat dastlab so`zlovchining o`ziga bo`lgan murojaatlaridan boshlanadi. Boshqacha aytganda, inson doimo o`zining nazoratida bo`ladi.

Inson tashqi olam bilan, ijtimoiy munosabatlardan kelib chiqib bog`lansa, faqat til orqali aloqaga kirishadi, aloqaga kirish imkoniga til tufayli ega bo`ladi, tashqi ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-falsafiy, ruhiy-ma`naviy dunyo mazmun-mohiyati bilan ham til tufayli tanishadi. U o`z dunyoqarashini ham ana shu munosabatlar tufayli va til vositasida olgan bilimlari zahirida shakllantiradi. Tashqi olam, obyektiv borliq inson uchun makromaydondir. Mikromaydoni esa inson o`zi bevosita aloqa bog`layotgan, muloqotga kirishayotgan o`zga suhbatdoshdir. Ana shu o`zga – ikkinchi subyekt haqida ham uning nutqi orqali ma`lumot olinadi – o`zganing intellektual va ruhiy – ma`naviy dunyosi faollashgan til tufayli bilib olinadi. Shuningdek, ayni damda, birinchi shaxs – birinchi subyektning, ya`ni so`zlovchining o`zida ham ana shu ijtimoiy mazmun-mohiyat til tufayli shakllanadi.

Yangi davr adabiyotida shoir o`z joniga murojaat qilishi poetik vazifa bajaradi, muallifning g`oyaviy maqsadini ochish uchun detal sifatida xizmat qiladi.

Badiiy matnda murojaat, grammatik ifoda bilan aytganda, undalma faqat muayyan shaxs, narsa, hodisa, umuman, tegishli nutq qaratilgan obyektning ishoralash va ko`rsatish uchun xizmat qilmaydi. Har qanday murojaatning asosiy va birlamchi vazifasi apellyativlik, ya`ni chaqirish mazmuni bo`lsa-da, bu

vazifa badiiy matnda kuchsizlanishi va unga qo'shimcha ravishda undalma yana boshqa vazifalarning ifodachisiga ham aylanishi mumkin. Shu sababdan, poetik sintaksis izlanuvchilari undalmaning uch asosiy turini e'tirof etganlar: 1) adresatsiya va xarakterzatsiya vazifalarini o'zida birlashtirgan undalmalar (adresatni tavsiflovchi undalmalar); 2) adresatsiya va nominatsiya vazifalarini o'zida birlashtiruvchi undalmalar (undalma-nominatsiyalar); 3) uch vazifasining barchasi (adresatsiya, nominatsiya va xarakterzatsiya)ni mujassamlashtirgan undalmalar (undalma pozitsiyasidagi fraza-nominatsiyalar). Bunday undalmalar poetik sintaksisning o'ziga xos o'tkir vositasiga aylanadi.

O'zbek poetik matnlarida ushbu tur undalmalarning betakror namunalari mavjud. Poetik matnda murojaat qilinayotgna obyektni ko'rsatish barobarida uni ayni paytda tavsiflovchi undalmalar badiiy fikr sig'imining yanada kengayishi uchun xizmat qiladi. Masalan:

*Og'ir yigit, sening go'zal, nurli ko'zingda
Bu millatning saodatin, baxtin o'qudim.
O'ylashingda, turishingda hamda o'zungda
Bu yurt uchun qutulishning borlig'in ko'rdim.*

(Fitrat. "O'gut")

Bu parchadagi *og'ir yigit* undalmasi murojaat obyekti bo'lgan shaxsni faqat nomlaydigina emas, balki uni tavsiflaydi ham, ya'ni bir paytning o'zida mazkur birlik ikki vazifani bajaradi. *Og'ir yigitga* qaratilgan bu murojaatda bir shoir iltijosi, da'vatigina emas, bu haroratli ovozda kamida bir millatning asriy istagi, qalb chaqirig'i yangraydi.

Murojaat obyektni ifodalash va uni nomlashdan iborat poetik polifunksionallikni namoyon etuvchi undalmalar ham o'zbek poetik matnlarida ko'plab uchraydi. Masalan:

*Nekrasov hasrati, o, rus hasrati,
Poyoning bormikan, hadding bormikan.*

(A.Oripov, Nekrasov hasrati)

Parchadagi *Nekrasov hasrati*, *rus hasrati* undalmalari murojaat qilinayotgan obyektни ifodalaydi, ayni paytda nominative vazifani ham bajaradi, albatta, bu polifunksionallik matndagi badiiy mazmun salmig`ini orttirishga xizmat qiladi. Quyidagi misollarda ham mazkur holatni ko`rish mumkin:

Sen esding – ochildi yorning jamoli,
O, yutim shamoli, yurtim shamoli.

(A.Oripov. Yurtim shamoli)

Jaloliddin samani bo`lib,
Sakrar o`tding Amudaryodan.
Sensan o`sha samanim manim,
O`zbekiston, Vatanim manim.

(A.Oripov. O`zbekiston)

Ham adresatsiya, ham nominatsiya, ham xarakterizatsiyadan iborat poetik polifunksionallik undalmalarning badiiy qimmatini yanada oshiradi, yaxlit matnning ta'sir kuchiga kuch qo'shadi. Mazkur uch vazifa mahorat bilan mujassamlashtirilgan undalmalarning juda ham tig'iz zanjiri qo'llanilgan quyidagi she'riy parchani ko`raylik:

*Ey mulkini bir chekkada tinch kemirib yotgan zot,
Besh tiyinga qadrini ham, xalqini ham sotgan zot,
Ko`kragida na himmatu na g`ayratdan asar bor,
Yuragida na oriyat, na shavq bor, na kadar bor,
Umrida hech qilgan emas, moldan o`zga bir niyat,
Seni deya tiladimi yuraklarga hurriyat?*

(E.Vohidov. Og`riqli savollar)

Parchada qo'llangan beshta undalma zanjiridagi (*mulkini bir chekkada tinch kemirib yotgan zot; besh tiyinga qadrini ham, xalqini ham sotgan zot; ko`kragida na himmatu na g`ayratdan asar bor; yuragida na oriyat, na shavq bor, na kadar bor;umrida hech qilgan emas, moldan o`zga bir niyat*) har bir undalma

ham murojaat obyektini ifodalaydi, ham uni nomlaydi va ayni paytda bu obyektning mutlaqo original tavsifini aniq-tiniq namoyon qiladi.

Xullas, tilning apellyativ vazifasi uning kommunikativ va hatto poetik vazifasidan ajratilgan holda tasavvur etilmaydi, ammo bu vazifalarning bevosita amalga oshishida u yoki bu tarzda murojaat unsure ishtirok etadi. Ayni paytda shuni ham ta'kidlash joizki, ayniqsa, apellyativ vazifaning ijrosijarayonida murojaat alohida o'rin tutadi. Shuninhdek, tilning poetik-estetik vazifasining amalga oshishida ham murojaatning o'rnini inkor etib bo'lmaydi.

Murojaat shakllarining tasnifi. Murojaat shakllarini qaysi jihatiga ko'ra sinflarga ajratish tilshunos olimi Z.Akbarova ishlarida keng yoritib berilgan. Ya'ni ustozning tasnifida murojaat shakllari to'qqiz asosga ko'ra xillarga ajratilgan.

Murojaat shakli nutq qaratilgan obyektни ifodalovchi so'z yoki so'zlar birikmasi sifatida belgilash tushunchani aniqroq ifodalaydi. Chunki nutq so'zlovchining o'ziga qaratilgan bo'lishi ham mumkin. Murojaat shakllari ma'lum asoslarga ko'ra guruhlanadi¹⁴:

I. Adresant qo'llayotgan so'zning qaysi tilga mansubligi jihatdan murojaat shakllari ikki turga bo'linadi: o'z qatlam va o'zlashma qatlam. O'zbek tili murojaat shakllarining ifodalanishida o'z qatlamdan tashqari, arab, fors-tojik va rus tillariga oid so'zlar ham faol qo'llaniladi. *Mulla, xalfa, azamat* kabi arabcha so'zlar; *birodar, oshna, do'st* kabi fors-tojikcha so'zlar; *serjant, mayor, kapitan* kabi rus tilidan o'zlashgan so'zlar nutqda ko'plab uchraydi. Murojaat shakli sifatida qo'llangan so'zlarga asoslanib, xalqning milliy mentaliteti, jamiyatdagi turli tabaqalar orasidagi rasmiy va norasmiy bo'lgan ijtimoiy munosabatlar, ruhiy-ma'naviy o'ziga xosliklar belgilanishi mumkin.

1. — **Hazratim**, bergan o'gitingizni bebaho gavhar o'rnida qabul qilurmiz, — dedi Nigor xonim. (P.Qodirov "Yulduzli tunlar")

2.— O'rtoq **leytenant**, agar mumkin bo'lsa bir narsani so'ramoqchi edim. (A.Hakimov "Oqsoq bo'ri", 158-b.)

¹⁴Z.Akbarova Murojaat shakllarining tasnifi asoslari O'TA, 74-76-b.

II. Semantik tabiati bo'yicha murojaat ifodalovchi so'zlar o'z va ko'chma ma'noda qo'llanadi. Masalan, "Bolam, tura qolgin. Jon bolam, kun yoyilib ketdi. Turaqol, jon bolam" (S.Ahmad "Ufq", 12-b.) gaplarida "bolam" so'zi o'zining lug'aviy ma'nosida – "farzand" ma'nosida qo'llangan. "Qayig'ingizdan foydalansak, **otaxon.**" (H. Gulom "Mash'al") gapidagi "otaxon" ko'chma ma'noda ishlatilgan, bundan tashqari, -xon qo'shimchasi qo'shilganda, uning adresantning otasi emasligi yaqqol anglashilib turadi.

Ko'chma ma'noda qo'llanadigan murojaat shakllari o'z ichida yana turkumlanishi mumkin.

a) Metaforik: "**Shunqorim, mard lochinim!** Bu yoqqa qarachi, ko'zlaringga to'yib boqay!" (Ch. Aytmatov "Jamila")

b) Metanimik: *"**Qo'yma, «8-Mart», qo'yma!**" (kolxoz nomi) (T.Murod "Ot kishnagan oqshom")

*Xudoyo xudovando, bolaginangning o'lganini ko'r, **sendaychikin shapkalar!**

c) Sinekdoxa usuli bilan: "Dunyoda o'zimizdan keyin qoladigan **tuyog'imiz...** (A.Qodiriy "O'tkan kunlar").

III. Murojaat shakllari tasnifida navbatdagi asos adresat ifodalovchi so'zning tematik maydonidir. Bu jihatdan murojaat shaklini – adresatni ifodalovchi so'zlar quyidagicha guruhlanadi.

1. Qarindosh-urug'chilik maydoniga doir so'zlar:

- "Sizga taraf yo'q, **tog'a.**"
- "**Jiyan**, -dedi Rahmatka qarab, - boshlab uylanishning albatta ota-onang uchun bo'lib ulardan ranjib yurishning o'rni yo'q." (A.Qodiriy "O'tkan kunlar")
- "Shu odatingiz qolmadi-da, **opoqi**, - dedi kuyinib Zahira hamon devorda turgan Tojixonga, - aytib yuragini ezib nima qilardingiz bechorani." (R.Fayziy "Hazrati inson")
- "Senga nima bo'ldi, **bolam?** "
- "Qo'yaver, **aya.**" (S.Ahmad "Ufq")
- "Eh, tentak **qizim**, qo'zichog'im."

• “Yo`q, **xotin**, Alisher yozgan xat katta, - dedi Umurzoq ota Xolbibini yupatib.”

- “**Otasi**, qizingiz uyquga ketipti.”
- “**Dadajon!** Nega, axir?.. Shuncha ham chopadimi odam.”
- “**Oyijon!** Nima gap? Xat keldimi?” (Sh.Rashidov “G`oliblar”)
- “Maktab qochib ketmaydi, **enajon**, — dedi Nazrulla.”
- “Qani kaklik? **Momo?!**” (Sh.Xolmirzayev qissalari)
- “Shundaymi, unda, maylingiz. O`zi, kelin qaerda, **quda?**”
- “Ay, **qaynim-e**, ay, kalla-e!” (T.Murod “Ot kishnagan oqshom”)
- “Qay nuktada, **padari muborak?**” (X.Sultonov “Saodat sohili”)

1. Do`stlik-o`rtoqlik maydoniga doir so`zlar:

➤ Qoyil! – Sergey uning yelkasiga qoqdi. – Bayram shu bilan shirin-da, **og`ayni!** (“Mash`al”)

➤ Bizni kechirasiz, **bek aka**, - deb Rahmat uzr aytdi.

➤ Yo`q, o`zim keldim, **boy aka**.

➤ Ajablanmangiz, **o`rtoq**, - dedi, - bekning mundan keyingi sog`ligi sizning ixtiyoringizda; bu o`yin emas – to`g`ri gap. (“O`tkan kunlar”)

➤ Qoyil! – Sergey uning yelkasiga qoqdi. – Bayram shu bilan shirin-da, **og`ayni!** (“Mash`al”)

➤ Barakalla, **tasadduq!** – deydi Ermon buva jilmayib. – Umingizdan baraka toping... (“Dunyoning ishlari”)

➤ **Qadrli do`stlar!** – dedi Jo`raboyev o`rnidan turib. (“G`oliblar”)

➤ Endi sizlarga bir ko`nglimni to`kib solsam, **azizlarim**, - Muhammadjon aka gapga juda chechan, notiq odam edi. (U.Hamdani “Muvozanat”)

➤ Bekor urinyapsan, **oshna**, men oshimni oshab bo`ldim.

➤ Yugurmasak bo`lmaydi, **og`aynichalish**, qora tortib kelishyapti, yaramaslar. (A.Hakimov “Oqsoq bo`ri”)

➤ **Hoy, birodar**, turing shaharga keldik, - deb uygʻotib qoldi. (*M.Ismoil*
“Fargʻona tong otguncha”)

➤ Chilvir? Qanaqa chilvir? **Okun**, mehmoni azizsiz, boʻhton qilmang!
Toʻriq, kel, haqingni ol!— dedi. (“Ot kishnagan oqshom”)

➤ Koʻzimiz toʻrt boʻldi, **poshshaxon**, bazmingizga mushtoqmiz, qani
oʻtiring. (“Qutlugʻ qon”)

➤ Olloh sabr bersin, **habibim**. (X.Sultonov “Saodat sohili”)

2. Lavozi maydoniga doir soʻzlar:

• **Janob meʼmor**, tavochilar navkarlikka odam olmoqdalar, istasangiz borib
navkar boʻling! — degan kinoyasi uni oʻziga keltirdi.

• **Janob eshik ogʻa**, ijozat bering, kamina Bobur mirzo huzurlariga kiray!
 (“Yulduzli tunlar”)

• Uyqum kelmayapti, **oʻrtoq muallim**. (Sh.Xolmirzayev)

• **Oʻrtoq serjant**, leytenant bu yerdan uzoqdami?

• **Leytenant**, bu yoqqa yugur. Tezroq! Tezroq! (“Oqsoq boʻri”)

• Shukur **muxbir aka**, shukur.

• Bormayman, **kapitan uka**, bormayman. (“Ot kishnagan oqshom”)

• Ay, Abil **hisobchi**, koʻp karillama! (“Momo Yer qoʻshigʻi”)

3. Ijtimoiy faoliyat maydoniga doir soʻzlar:

○ Keling, **shoir**, yashang! (“Momo Yer qoʻshigʻi”)

○ Odam soʻzlashib topishadi, yilqi kishnashib topishadi, Ziyodulla
chavandoz!

○ Ay **bakovul**, shunday haq olib yegandankoʻra, koʻchadan... terib
yesalaring boʻlmaydimi?

○ Xoʻsh **choyxonachi, baliqpaz...** Bugunchaboʻldi, aka, qolganini boshqa
kun gaplashamiz.

○ Boʻldi-e, **juvozkash-e**, boʻldi-e!

○ **O, ritsar!** XX asr ritsari! (“Ot kishnagan oqshom”)

○ Oling, **dehqon aka!**..

- Insof qiling, **baqqolaka!**—qichqirdi Yo`lchi. (“Qutlug` qon”)
- Obbo, **tegirmonchining qizi!..** Bitta qo`yni nazarlari ilmaydi! (A.Qahhor “Dahshat”)

4. Jismoniy belgi maydoniga doir so`zlar:

- Chilimni sol, **cho`loq**, hazilni bilmagan **kal** Fozil! (“Saodat sohili”)
- Obbo **tutxo`r-ey!** – Rais buva qo`ltig`imdan olib tol tagiga sudradi.

(“Dunyoning ishlari”)

5. Yer va osmon jismlari maydoniga doir so`zlar:

- ❖ Xayr, ey, **maskanim - tuqqan yerlarim**,
- ❖ Xayr, ey, **sahrolar, xayr, ey, tog`lar**. (A.Oripov “Saylanma”)

6. Hayvon va parrandalar maydoniga doir so`zlar:

- To`xta, **tillaqo`ng`iz**, u yoqqa borma. (M.Yusuf “Tillaqo`ng`iz”)
- Qorning ochgandir, **arslontoyim**, — paranji va savatni ayvonga uloqtirib dedi Kampir.

- Bundan ko`ra go`ng titganing yaxshi emasmi, **kekxa tovuq!**
- Yo`q, tuzim, nonim sani quturtirgan, **it!**— o`dag`ayladi Salim.
- Ha, noinsof, ha, **ko`ppak!**— Qoratoym boyni so`ka boshladi.
- Bas, uyatsiz **maxluq!..** Kim uni zaharlaydi?
- So`zga quloq sol, shallaqi **makiyon!**—Yormat ko`zlarini nayzaday qadadi.
- Obbo, **la`nati kalxamaj!** (“Qutlug` qon”)

7. Oziq-ovqat maydoniga doir so`zlar:

- ✓ Obbo **tutxo`r-ey!** – Rais buva qo`ltig`imdan olib tol tagiga sudradi.
- ✓ Voy uyingga **bug`doy to`lgurlar**, voy ko`paygurlar, kela qolinglar, - deydi ovozi tovlanib. (“Dunyoning ishlari”)

8. O`simliklar maydoniga doir so`zlar:

- **Lola, lolajonim, lolaqizg`aldoq!** (M.Yusuf “Lolaqizg`aldoq”)
- **Binafsha, senmisan, binafsha – senmi.** (Cho`lpon “Binafsha”)
- **Rayhon**, hidlaringni yo`llaringga sep... (“Biz baxtli bo`lamiz”)

9. Vaqt maydoniga doir so`zlar:

IV. Murojaat shakllarining hududiy xoslanishi ayrim shevalarda fonetik jihatdan ham farqlanadi. Qarindoshlik giponimlarida bu ayniqsa yaqqol ko`zga tashlanadi. Shunga muvofiq, hududiy xoslanish bo`yicha umumtilga va shevaga xos murojaat shakllari ajratiladi.

O`zbek tilining qarluq-chigil-uyg`ur dialekti uchun xos bo`lgan “o” lashish hodisasi Toshkent shahar shevasida ham uchraydi. Badiiy asar personajlari nutqida ham bunday fonetik dialektizmlarning turli o`ziga xosliklari namoyon bo`lib boradi. Umumtilda qo`llanadigan “aka”, “opa” murojaat shakllari ba`zi shevalarda asliy shaklidan fonetik o`zgarishga uchrashi bilan farqlanadi. Masalan, E, qanday suzadi, **apa**, ko`zi ko`rmaydi-ku uning! – deydi sho`xroq fe`li otasiga tortgan to`ng`ich o`g`il qiqirlab. (E.A`zam “Chapdast”); Chilvir? Qanaqa chilvir? **Okun**, mehmoni azizsiz, bo`hton qilmang! To`riq, kel, haqingni ol!— dedi. (“Ot kishnagan oqshom”). Bu misollar nutqning shevaga xos shakliga mansub bo`lib, ularda Buxoro shevalariga mansub birliklarni ko`rish mumkin. Personajlar tilida qo`llangan “ako”, “akomullo”, “do`xtar”, “jo`ra” kabi murojaat shakllari o`zbek va tojik tillari mustahkam aloqadorlikda bo`lgan shevalarda uchraydigan leksik va fonetik dialektizmlardir.

V. Murojaat shakllari iste`mol faolligi bo`yicha o`zaro farqlanadi. Bu jihatdan ular faol (aktiv) va nafaol (passiv) murojaat shakllariga ajratiladi. Faol murojaat shakllari hozirgi kunda adabiy va so`zlashuv tilida keng qo`llaniladi. Ayni vaqtda faol murojaatlar nutqda odatiy sozlarga aylanib ulgurgan. Bu kabi murojaat shakllarining asosini oila-urug`chilik maydoniga doir so`zlar tashkil etadi. Masalan, “**Oyijon!** Nima gap? Xat keldimi?” (“G`oliblar”). Nafaol iste`molda bo`lgan murojaat shakllariga mansub so`zlarning ko`pchiligi bugungi kunda nisbatan kam qo`llanilaigan eskirgan so`zlardir. Bunday murojaatlarga, odatda, tarixiy kasb-hunarga, saroy hayotida qo`llangan so`zlarni kiritish mumkin. Masalan,” Bo`ldi-e, **juvozkash-e**, bo`ldi-e!” (“Ot kishnagan oqshom”), ” **Hazrati oliylari**, yana chopar yuborishga farmon berurlarmi?” (“Yulduzli tunlar”).

VI. Murojaat shakllarini tasnif qilishda uning stilistik tomonlarini ham e`tiborga olish lozim. Bu jihatdan ular bo`yoqsiz (neytral) vabo`yoqdor murojaat

shakllariga bo`linadi. Murojaat shakllarida uslubiy bo`yoqdorlik turli xil usullarda ifodalanadi. Ma'no ifodalash jihatdan neytral bo`lgan, ya'ni bo`yoqsiz murojaat shakllarida, odatda, subyektiv baho mavjud bo`lmaydi. Ulardan farqli ravishda adresant nutqining bo`yoqdor murojaat shakllarida kelayotgan so`z yoki ibora obrazlilik bilan boshlanadi – nutqiy maqsad va vazifani yanada konkretlashtiradi. Murojaat ifodalovchi so`zlarda bo`yoqdorlikni oshirish bilan erkalash, ta'kidlash kabi modal ma'nolarni yuzaga chiqaradi. Masalan, “Rahmat, **inim Miris'hoq**. Biron xizmat bo`lsa, tayyorman!— boyvachchaning orqasidan qichqirib qoldi chol” (“Qutlug` qon”). Faqatgina ism bilangina cheklanmay, *inim* so`zining qo`llanilishi ta'kidni, so`zlovchining tinglovchiga yordam berishga tayyor ekanligini ifodalagan. Mana shu so`z bilan ijobiy bo`yoqdorlik yuzaga chiqqan. “Qorning ochgandir, **arslontoyim**, — paranji va savatni ayvonga uloqtirib dedi kampir” (“Qutlug` qon”). Bu gapdagi murojaatda esa birdaniga so`zlovchining munosabati yuqori darajaga ko`tarilgan. Ham egalik, ham ikki erkalash ma'nosini beruvchi so`zlarning birgalikda kelishi ijobiy bo`yoqdorlikni oshirgan.

VII. Murojaat shakllari shakily jihatdan ham tasnif qilinadi. Bu jihatdan murojaat shakllari ikki xil ko`rinishga ega: sodda va murakkab. Sodda murojaat shakllari:

- “**Xo`jayin**, har yerda bir g`alva ko`tarasiz” (“Qutlug` qon”).
- “**Odamxo`rlar!..** – deb qichqirdi va u oldinga otildi” (“Opa-singillar”).

Murakkab murojaat shakllarining imkoniyatlari sodda murojaat shakllariga nisbatan ancha ko`p. Chunki murakkab murojaat shakllarida adresantning adresatga bo`lgan munosabatini har tomonlama ochib berishga harakat qilinadi:

- **Olloning quli Kazangapning farzandi Sobitjon**, mening chap tomonimda tur... (“Asrga tatigulik kun”)
- Otilib bo`lgan bu **jahannam tepkilari!** – Qamchi ko`zlari chaqnab, g`azablanib gapirdi. (“Mash'al”)
- Bo`pti, **qoravoylar, popuklar**, yaqinroq kelinglar. (“Dunyoning ishlari”)

• **Odamlar-u odamlar, tog`da bitgan bodomlar,** eshitmadim demanglar!
 (“Ot kishnagan oqshom”)

• Xayr, ey, **bearmon kezgan qirlarim,**

Xayr, ey, **yiroqqa qochgan so`qmoqlar.** (A.Oripov Saylanma)

• **Yetti iqlimning shamsi anvori, zarofatliq podshohimiz Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo hazrati oliylariga** duoyu ehtiromlarimiz bo`lg`ay!
 (“Saodat sohili”)

Bu misollardan shuni anglashimiz mumkinki, sodda murojaat shakllari sifatlovchilar bilan kengayganda murakkab murojaat shakllari hosil bo`ladi. So`zlashuv nutqida ham, badiiy asar tilida ham so`zlovchi nutqiy muloqotining mazmuniy yaxlitligi saqlanadi, ya`ni murakkab murojaat ifodasi shaklan murakkab bo`ladi, xolos.

VIII. Murojaat shakllari nutq uslublariga ko`ra xoslanishi bo`yicha ham tasnif etiladi. Bunda mavjud nutq uslublariga xoslangan barqaror etiket shakliiy rasmiy uslubga xos. Barcha harbiy unvonlar atamaları ana shu tipga kiradi. Bunday uslubda boshqa uslublarga xos murojaat shakllari ham keng qo`llana beradi. Umuman, nutq uslublariga xoslanishi bo`yicha murojaat shakllari asosan quyidagi to`rt uslubda qo`llanishi kuzatiladi:

1. So`zlashuv uslubida: Bardammisiz, **boboy?** (“Qutlug` qon”)
1. Badiiy uslubda: **O`g`lim, jigargo`sham,** aytgin-chi nahot,
Achinmaydi joning onang holiga. (M.Yusuf “Onamdan xat”)
2. Rasmiy uslubda: **O`quvchi Qurbonov,** senga aytyapman! (T.Murod. Ot kishnagan oqshom)
3. Publitsistik uslubda: **Muhtaram radiotinglovchilar!** – dedi muxbir.
 (“Momo Yer qo`shig`i”).

IX. Tarixiylik jihatidan murojaat shakllari yangi va eskirgan shakllarga bo`linadi. Biz tadqiqotimizda Z.Akbarovaning tasnifiga qo`shimcha ravishda yana quyidagi turlarni ham tasnif qilishga asos sifatida oldik.

1. Rasmiy murojaat:

a) Tarixiy-rasmiy murojaat:

▪ **Rahmat fuqaro!** Orqamda sizningdek fuqarom turg`anda menga hech bir qayg`u yo`qdir!

▪ **Sizkim Kumushbibi Mirzakarim qizi**, o`zingizni toshkandlik, **musulmon Otabek Yusufbek hoji o`g`liga** bag`ishlamoq vakolatini amkingiz Muhammadrahim Yo`ldosh o`g`liga topshirdingizmi?

▪ **Taqsir**, sizga arz bor. (“O`tkan kunlar”)

▪ Tez bo`ling, **Bek afandi!** – degan hokimona tovushi eshitildi. (“Mash`al”)

▪ **Hazrati oliylari**, yana chopar yuborishga farmon berurlarmi?

▪ **Amirzodam**, hozirgina bir mashqdan chiqdingiz. Boshqa mushkul mashqlarni ertaga qoldiring.

▪ **Mirzom!..** Tangri sizga quvvat bersin! Endi bizning pushti-panohimiz o`zingizsiz! Ikki tarafimizni yog`iy bosgan.

▪ **Janob eshik og`a**, ijozat bering, kamina Bobur mirzo huzurlariga kiray!

▪ **Janob amirlar**, sizlarning fikrlaringiz qalay?

▪ **Mulla** Fazliddin, yog`iy kelsa po`lat sandig`ingizni tinch qo`ymas, — dedi pochchasi.

▪ **Hazrat shoh**, tuni bilan qor bo`roni ichida muzlab qolishdan qo`rqmaysizmi?

▪ **Hazrat begim! Shahzoda!** Tezroq chiqinglar! (“Yulduzli tunlar”)

b) Zamonaviy-rasmiy murojaat:

❖ **O`rtoq serjant**, leytenant bu yerdan uzoqdami? (“Oqsoq bo`ri”)

❖ **Hamidov muallim**, bu qanday mashina bo`ldi? — dedim. (“Ot kishnagan oqshom”)

❖ Nimaga o`z ukalaringiz chetda qoldi, **ellik boshi**, shu ham insofmi? (“Qutlug` qon”)

❖ **Oliy mehmon**, siz g`aroyib bir hodisaning guvohidirsiz. (“Yulduzli tunlar”)

❖ **Qadrli do`stlar!** – dedi Jo`raboyev o`rnidan turib. (“G`oliblar”)

❖ Qanaqa g`araz, **o`rtoq Safarova?** Nima deyapsiz? (P.Qodirov “Qora ko`zlar”).

Bundan tashqari, murojaatlarda qarg`ish so`zlarning ham ifodasini kuzatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda ezgulikka yo`g`rilgan qarg`ish so`zlar hamda duoyibad (yomon niyat) murojaatlarga ajratish mumkin.

1. *Ezgulikka yo`g`rilgan qarg`ish so`zlar* orqali murojaatda so`zlovchining tinglovchi yoki borliqqa bo`lgan xayrixohligi, kuchli his-hayajoni, nutq qaratilgan shaxs yoki predmetga ijobiy nazar bilan qarashini ko`rishimiz mumkin:

- Hoy oqsoqollar, **baraka topkurlar**, astaroq gaplashinglar, eshitishga xalaqit beryapsizlar, - dedi kimdir. (“G`oliblar”)

- Voy uyingga **bug`doy to`lgurlar**, **voy ko`paygurlar**, kela qolinglar, - deydi ovozi tovlanib. (“Dunyoning ishlari”)

- Ha, **bo`yingdan momong aylansin**, o`ynay ber, o`zim kelin qilaman! (“Ot kishnagan oqshom”)

- Hech kimga aytmang, **o`layjon**. (E.A`zam “Guli guli”)

- Barakalla, **tasadduq!** – deydi Ermon buva jilmayib. – Umringizdan baraka toping... (“Dunyoning ishlari”)

2. Duoyibad murojaatlarda esa so`zlovchining birinchi o`rinda qattiq nafratlanish, jirkanish kabi tuyg`ularni anglaymiz:

- Muncha xor qildinglar **lahatga kirgurni, juvon o`lmagurlar!..** (“Opa-singillar”)

- **Imoning kuygurlar!** Bir mo`min bandani o`ldirasanmi! — dedim. (“Ot kishnagan oqshom”).

O`zbeklar muloqot madaniyatiga xos katta yoshli suhbatdoshlarga hurmat murojaat shakllari orqali ham ifodalanadi. O`zbek muloqot xulqida, asosan, katta yoshli kishilarga “siz” lab murojaat qilinadi. Bunday holat begona kishilarga murojaat qilishda ham uchrab turadi. “Sen/siz shakllarining almashinishi ijtimoiy vazifa-mavqelarning o`zgarishi bilan ko`rinadi: shunchaki tanish bo`lgan kishilarning qadrdonlashishi, sharoitning rasmiydan norasmiyga o`tishi yoki aksincha”¹⁵. Bundan tashqari, yoshi katta so`zlovchilar nutqidagi murojaat shakllari o`zining ma`no bo`yoqdorligi bilan ham xarakterlanadi. Ular nutqida “bo`tam”,

¹⁵ IskandarovaSh. “O`zbeknutqodatiningmuloqotshakllari”, fil.fan.nomz.diss.avt.ref. T., 1993y. –B 16.

“arslonim”, “toychog‘im”, “jonim”, “bolam”, “farzandi aziz”, “sher o‘g‘il” kabi murojaat shakllari hamda tinglovchining ismiga “xon”, “jon” kabi qo‘shimchalarni qo‘shish holatlari uchraydi.

Demak, murojaat shakllari insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatni, yosh darajasini ifodalaydi. Murojaat shakli sifatida qo‘llangan so‘z va so‘zlar qo‘shilmasida ma‘lum bir davr ijtimoiy mazmuni ham aks etadi. Ular orqali biz nutq qaratilgan obyekt haqida ma‘lumotlar olamiz. Ayniqsa, so‘zlovchining unga bo‘lgan subyektiv munosabati bahosini bilishimiz mumkin.

2.2. Erkaklar va ayollar murojaatining o‘ziga xos qirralari

Kishilarning o‘zaro aloqaga kirishuvida erkaklar va ayollar nutqi ajratilar ekan, bu ham erkak yoki ayolning jamiyatdagi ijtimoiy roliga bog‘liq holda yuzaga keladi. Insonlararo kundalik aloqalarni nutqiy muloqotsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘zaro muloqot jarayonida inson lisoniy shaxs sifatida o‘zini namoyon qiladi. Muloqot jarayonida tildagi lingvostilistik vositalardan o‘rinli foydalangan holda lisoniy shaxsning o‘z fikrlarini ifodalash imkoniyatiga egaligi, shuningdek, muloqot jarayoni yuzaga kelishi uchun talab qilinadigan nutqiy vaziyat, muloqot kechayotgan muhit, o‘z kommunikativ maqsadi, nutq qaratilgan shaxsga xos xususiyatlar va unga bo‘lgan munosabatini e‘tiborga olgan holda aloqaga kirisha olishi uni boshqalardan farqlab turadi.

Kundalik hayotda o‘zaro muloqot jarayonida belgilangan rolning bir xil tarzda muntazam davom etishi ayol yoki erkakning nutqiga, uning xulqiga ma‘lum darajada ta‘sir ko‘rsatadi. Bu esa ularning fikr ifodalashda qanday nutqiy taktikani qo‘llashlari, qanday til birliklari vositasida o‘z kommunikativ maqsadlariga erishishiga ta‘sir qiladi. Bu holat, ayniqsa, erkaklar va ayollar murojaatida yaqqol aks etib turadi.

Erkaklar nutqida ayollar murojaatida uchramaydigan quyidagicha tafovutlar bor: 1) erkaklar nutqida qo‘llanadigan gaplar ayollarnikiga nisbatan qisqaroq bo‘ladi; 2) grammatik xatolar ko‘p uchraydi; 3) erkaklar nutqida asosan ot va sifatlar ko‘proq, fe‘l va yuklamalar kam qo‘llaniladi:

– Yo`qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho`kiz edi.

– *Ola ho`kiz...*

– Yaxshi ho`kizmidi yo yomon ho`kizmidi?

–*Qo`sh mahali...*”, (A.Qahhor. O`g`ri); 4) erkaklar nutqida ratsional baholar ijtimoiy baholarga nisbatan ustunligi seziladi. Ijtimoiy baho juda kam uchraydi. Erkaklar nutqida emotsional va sensor baholar ham kam qo`llaniladi. Ular ko`proq estetik bahoni ajratib, o`zini o`rab turgan obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalarning axloqiy tomoniga e`tibor berishadi: “ – *Ha, aytganday, - dedi Karim ota piqirlab kulib, - domla sochlarini bo`yatibdilar!.. Azbaroyi xudo, kuya tushgan po`stakka o`xshaydi!.. Mayli, bo`yoq topilgan bo`lsa bo`yasin, lekin shu bo`yoq bilan qilg`ini ham bo`yashga, sochiga mos qiliqlar qilishga urinsa uncha yaxshi chiqmas ekan!*”, (A.Qahhor. To`yda aza); 5) erkaklar ayollarga nisbatan dunyoni va voqelikni rang-barang tavsiflar, bo`yoqlar va belgilar bilan ta`riflaydilar: “*Birodarlar, Momosuluv tushimda Cho`lpon edi, hushimda Oy edi, qo`ynimda Oftob bo`ldi*”, (T.Murod. Ot kishnagan oqshom); 6) erkaklar va ayollar tomonidan yozilgan matnlarning sintaktik tuzilishi erkaklarning teng bog`lanishli yuzaga kelgan aloqani emas, ko`proq tobe aloqali bog`lanishlarni qo`llashini ko`rsatadi: “*Shomdan so`ng tevarak-atrof chodrasiga burkandi-yu, Nur qo`rboshi alanglay-alanglay xarsang panasidan chiqdi*”, (L.Bo`rixon. Aldoqchi tunlar); 7) erkaklar nutqida undov va so`roq gaplar kam qo`llaniladi; 8) to`liqsiz gaplar va elliptik qurilmalar ham kam qo`llaniladi; 9) erkaklar yozma nutqida teskari so`z tartibi ham o`ziga xosdir¹⁶.

Murojaat shaklining ekstralingvistik usul va vositalarini uchga bo`lamiz¹⁷:

1. Ishora-harakat – jestikulyatsion vositalar.
2. Tovush – fonatsion vositalar.
3. Rang vositalar.

Jonli sozlashuv nutqida suhbat jarayonidagi ekstralingvistik vositalar vizual bo`lib, ular hech qanaqa izoh talab qilmaydi. Biroq og`zaki jonli nutq yozuvga

¹⁶ www.Scientist.uz

¹⁷Ko`rsatilgan manba. Xoliqova Z. 42-43-b.

ko`chganda, muallif – hikoya qiluvchi izohiga ehtiyoj tug`iladi. Bu izoh murojaat tarzini bayon etadi – jonlantirib “qiyofalantiradi”, “suratlashtiradi”. Ishora-harakat ana shunday vositalardan bo`lib, muallif-hikoyachi uni o`z izohi orqali ko`rsatadi-holatni “chizish” orqali konkretlashtiradi.

“Til sistemasi hamisha har qanday fikr mazmunini, his-hayajonlarni va boshqa tuyg`ularni ifodalash qudratiga ega, lekin shunga qaramay, aloqa aralashuvida inson beixtiyor noverbal vositalardan foydalanadi”¹⁸.

Ishora-harakat, ekstralingvistik vosita sifatida xilma-xildir. Bulardan ko`plari inson tana a`zolari harakatlari bilan bog`lanadi. Bu harakatlarning eng faoli qo`l harakati hisoblanadi: “ - Ma` qul, ma` qul boy ota, soyayi davlatingiz kam bo`lmasin!—Mahamad Rasulqo`lqovushtirib chiqib ketdi”. (Oybek. Qutlug` qon).

Shuningdek, ushbu “qo`l qovushtirmoq” harakati ko`proq erkaklar nutqiy vaziyatida yuzaga chiqadi. Birgina Oybekning “Qutlug` qon” romanida” to`qqiz o`rinda ushbu iboraga duch kelsak, ulardan faqat bittasigina ayollar epizodida qo`llanilgan: “Mirzakarimboy namozasrga yaqin keldi. Unsin o`rnidan turib, qo`l qovushtirib, bir chekkagasuqildi”.

Nolisoniy vositalarning aksariyati o`ziga xos milliy an`analarni ko`rsatadi. Jumladan, o`zbek ayollari erkaklar bilan so`rashganda, ba`zan ikki kaft bilan ularning yelkasini silab (yelkalaridan olib), yuzga qo`l tortib (yuzga surtib) ko`rishishlari erkak kishini ulug`lashlari natijasidir.

“Bobur:

- Xush ko`rdik, begim, - dedi-da, unga o`ng yelkasini tutdi.

Oyisha begim ozg`in qo`llarini uning yelkasiga qo`yib ko`rishar ekan:

- Hazratim, g`alabangiz muborak! – dedi (P.Qodirov. Yulduzli tunlar).

Qo`l harakati bilan bog`liq bo`lgan yuqoridagi misollardan shu narsa ma`lum bo`ladiki, u harakatlar murojaatni to`ldirish uchun qo`llangan ko`makchi ekstralingvistik vositalardir. Qo`lning inson tana a`zolari ichida nisbatan faolligi ekstralingvistik vosita sifatida ham vazifa bajaradi. So`z so`rash, biror narsa yoki

¹⁸ Ko`rsatilgan manba. Xoliqova Z. 43-b.

voqea-hodisa haqida axborot-ma'lumot berish uchun murojaat qilinganda qo'l ko'tarishning o'zi yetarli bo'ladi.

Inson ta'na a'zolaridan ko'z, qovoq, qosh, yuz, lab kabilar ham murojaat ifodalashning ekstralingvistik vositasi sifatida vazifa bajaradi.

Yuz va nigoh orqali ham murojaat to'ldiriladi. A.Dyumaning mashhur "If qal'asining mahbusi" asari qahramonlaridan biri Valentina bir epizodda Maksimillianga qarab qo'lidagi ro'molchasini labiga bosib qo'yadi. Bu – fransuzlarga xos salomlashishning bir ko'rinishi. Shunga o'xshash harakat o'zbek ayollarida ham bor: bu boshdagi ro'molning uchini labga bosish tarzida ko'rinadi va kutilmagan vaqtda yuzaga kelgan yoki o'rinsiz ishlatilgan vositalardan hayratlanish, shuningdek, qo'rqish ma'nosini bildiradi:

"Kampir behad shod edi. Shodligi shunchalikki, esiyam butkul o'ziga kelganday...

Hojar ro'molning uchi bilan ko'zini artdi, so'ng uni og'ziga bosib tislandi" (Sh.Xolmirzayev. Qadimda bo'lgan ekan).

Jisman ta'sir, ya'ni qo'lidan ushlash, o'ziga tortish, o'zidan itarish kabilar murojaat obyektni o'ziga qaratishga xizmat qiladi. Bu xatti-harakatda so'zlovchi subyektning munosabati ham namoyon bo'ladi, uning ijtimoiy o'rni, mavqeyi ham ochiladi:

"Nuri uning ko'ksiga *qo'lini qo'ydi*, bir qo'li bilan peshanasini sekin *siladi*. Yo'lchiseskanib ko'zlarini ochdi, boshini keskin ko'tardi" (Oybek. Qutlug' qon).

Muallif-hikoyachi izohi murojaat nutqi oldidan murojaat bo'lib kelish hollari ham mavjud bo'lib, bu ko'proq xalq og'zaki ijodi namunalarida kuzatiladi:


"Xiromon... momoga salom berib, uning qoshiga borib o'tirdi. Momo "keldingmi ham, kelmadingmi ham" demadi. Salomiga alik olmadi (demak, murojaat – salomga javob bo'lmadi). Xiromon: "El-yurtga dong'im ketgan bir ovozavor pari edim, bu ayg'omligiga momo meni bir beobro' qiz deb angladi chog'i", deb yuragi bo'z qilib, tura kelib, momoga zarda qilib, "na maqsading bor, momo?" deb, momoga achchiqlanib arz qilib (demak, arz-murojaat qilib),

momoning maqsadini, shaharning qamaganin sababini so`rab, Xiromon bir so`z dedi:

Xeliga kirgandir ey, momo, yoshing,
Shahar darvozaga sig`maydi boshing,
Men bilan, momo, bitarmi kengashing?
Mana men tururman Xiromon pari.

(Gulixiromon)

Keltirilgan parchadagi muallif-hikoyachi izohi uyushiq izoh shaklida:
1) yuragi bo`z qilib, 2) tura kelib, 3) momoga zarda qilib, 4) achchiqlanib arz qilib,
5) momoning maqsadini, shaharning qamaganin so`rab muallif-hikoyachi izohidir.
Keltirilgan izohlar “bir so`z dedi” ga to`g`ridan to`g`ri bog`lana oladi.



Muallif-hikoyachi izohlarining birinchisi psixologik, ikkinchisi harakat, uchinchisi psixologik harakat ekstralingvistik vositalar orqali ifodalangan izoh sanalsa, qolganlari lingvistik vositalar orqali ifodalangan izohlardir.

Yana shuni ham ta`kidlash kerakki, muallif-hikoyachi o`rnida bevosita murojaat qiluvchi subyektning “murojaatga kirish” murojaat tipidagi izohi bo`lishi ham mumkin. Xiromonning yuqoridagi murojaatidan so`ng “uyg`ongan momo” Xiromonga murojaat qildi. Lekin murojaati oldidan so`rov – surishtiruv va izoh mazmunli murojaati bor:

“Shunda momosi ko`zini ochib, qovog`ini uyib:

- Xiromon senmi? Nima gaplar chiqyapti hali tilingdan? Ayrilging kelyaptimi G`ulg`ul elingdan. Mochag`ardan moxag`arga solasan, bir ish kela turgandek

sening qo`lingdan. Chin oshig`ing tokay kuysin xelingdan? Qachon quchoqlaydi nozli belingdan? – deysan aylanayin... Oraliqda men bo`lib qoldim danakar, bir o`g`lim bor, sendan qizim, umidvor. Sabab shuldir, keng shahringni qildim tor, ikki og`iz, bolam, senga gapim bor. Men aytayin quloq solib tinglagin:

Qatorning yarshig`i nor bilan,
U bachchaning kayfi kelar yor bilan,
Momong ishi yo`qdir nomus-or bilan,
Menam davron surdim o`n to`rt yor bilan”

(Gulxiromon)

Agar yozma dramaturgiyada muallif-hikoyachi dramaturgning izoho qavs ichidagi va tashidagi kichik-kichik remarkalarda berilsa, xalq dostonlarida muallif-hikoyachi-baxshilar izohi an’anaviy “bir so`z dedi” birikmasidan oldin keladi. Har ikki holat ham barqaror ko`rinishga kelib qat’iylashgan.

Xalq dostonlarida “bir so`z” deyishdan oldin shu aytiladigan “bir so`z”ni tinglash uchun murojaat qilinadi. Bu murojaat ekstralingvistik murojaat shakli bo`lib, muallif-hikoyachining tilidan “qarab” so`zi orqali ifodalanadi – qarab, ya’ni murojaat qilib. Bu orqali so`zlovchi tinglovchiga o`z muddaosini ham bayon qiladi. “Qarab” ekstralingvistik usuldagi ishora-harakat vositasidir: “Shunda Hiloloy Gajdumbek akasiga qarab, bir so'z dedi:

Erta turib zar kokilim tarayman,
Qiz boshimman mol-u holga qarayman,
Katta hovli yumushi zo'r, akajon,
Bu hovliga bir xizmatkor so'rayman.”

(Go`ro`g`lining tug`ilishi)

Xalq og`zaki ijodida faol bo`lgan bu usul yozma adabiyotlarda ham mavjud. Murojaat shaklining ishora-harakat ekstralingvistik vositasi orqali murojaat qilinganda, murojaat obyekti u murojaatga o`z harakati bilan javob beradi. Bunda so`z ishtirok etmaydi.

“Tiz cho`kish”, “oyog`iga yiqilish” kabi ishora-harakatlar mavjudki, ular benihoya ulug` sanalgan murojaat obyektlariga bo`lgan munosabatlarini ko`rsatadi. Masalan, “Qabryonig`a tiz cho`kkan yigitning ko`z yoshlari ham qur`on oyatlariga qo`shilishib oqar edi.” (O`tkan kunlar)

Ishora-harakat ekstralingvistik murojaatda qo`l ko`tarish, ta`zim qilish harakatlari orqali ham murojaat qilinadi. “... xon baqirganicha tez ketadi, Zuhra qo`l cho`zadi” (S.Abdulla).

Bu qo`l cho`zish jon talvasasidagi Zuhraning atrofga murojaati edi. Lekin u konkret Tohirga murojaat bo`lib shakllanadi. Ishora-harakat ekstralingvistik vositalar she`riy shakldagi nutq ko`rinishiga nisbatan tez sur`atli, shiddatkor bo`ladi. Chunki she`riy nutq, birinchidan, aniq-ravshan o`lchamga tushgan, fikr his-tuyg`ular bilan boshqariladigan hissiyot nutqidir. Quyida keltiriladigan to`rtlikning ikkinchi misrasi kinoya-so`roq hamda buyruq mazmunidagi murojaat sanalsa, uchinchi misrasi ishora-harakatni ko`rsatadi:

Malikaning ko`zlarida chaqnadi kibr,
Dedi: - Nechuk intilibdi bu zot ziyoga?!
Qiz eshikni yopar ekan zarb bilan keskir,
Toqatim yo`q meni, - dedi sendek Mirzoga.

(A.Oripov)

Murojaat shaklida fonatsion vositalar ham mavjud bo`lib, ular ekstralingvistik vositalarning ikkinchi guruhini tashkil etadi. Bunda ovozning baland-pastligi, cho`ziqliligi, shiddati, jahd bilan talaffuz qilinishi kabilar murojaatga qo`shiladi va uni to`ldiradi. Murojaat shaklining bu ko`rinishida dam muallif-hikoyachi izohi mavjud bo`ladi va fonatsion vositalar ana shu izoh orqali ma`lum bo`ladi.

Fonatsion vositalar orqali murojaat shakli tarzi muallif-hikoyachi izohisiz ham berilishi mumkin. Bunda so`zlovchi subyekt nutqining o`ziga xos jumla tarkibidagi ba`zi so`zlarning yozuv ifodasi talaffuzdagidek ko`rinishda yoziladi: - Habibjo-on, ha, Habib, bu yaqqa ke endi, biz bilan ham birpas gaplashib o`tir, bolam! (Sh.Xolmirzayev)

Quyida keltiriladigan parchada ishora-harakat-jestikulyatsion, tovush-fonatsion vositalar murojaatning qay tarzda ifodalanganini ko`rsatadi:

Nega uxlamadingiz?

Onam yanama'yus jilmaydi:

— Bilasan-ku, jon bolam, kamuyqu bo`lib qolganman.

— Shu stol siznikimi? — dedi negadir qovog`ini solib.

Oyi,.obkashniyam ayting.

— Bo`ldi, uxla...

— Ayta qo-li-i-ing.

— Oyog`ingizdan ayrilibsiz-ku! — dedi Hoji buvi boshini chayqab. — Shu ahvolda qandoq keldingiz?

— Kerakmas, kerakmas! — dedim oyog`imni tipirlatib.

Hoy, qizim, bola-ya bu, bola-ya! — onam chumchuqdek chirqillab juvonga yopishdi.

— Oyi! — dedi xirillab. — Oyi-i-i!

Yoqasiga chang solib bir tortgan edi, kir ko`ylagi shir etib yirtildi-da, qop-qora, baquvvat yelkalari titragancha og`zidanko`pik sachratib hayqirdi:

— Oyi! Oyi!

(O`tkir Hoshimov)

Quyidagi kichik parchada suhbatdoshlarning ruhiy holati qay tarzda kechganligi muallif-hikoyachining izohida hamda ayrim tovushlarni cho`zish orqali o`zining yorqin ifodasini topgan.

— A? Tinchlikmi? — ayolcho`chib uyg`ondi.

Nazirpolvon javob bermadi.

— Nima, siznikiyam buzilib qoldimi? — so`radi ayol ko`zlarini ishqalab.

— Hm... — dedi polvon va istehzo bilan jilmaydi, buni ayol sezmedi.

— Ko`zim ilinibdi, — dedi u yengil esnab. — Yo`lda hech uxlaydigan odatim yo`q edi. Ancha turamizmi?

(O`.Umarbekov)

Murojaat shakli ifodalanishida rangning ham o'z o'rnini bor. Ranglarga nisbatan munosabat turli chorlov murojaatlarini ifodalashga xizmat qiladi.

O'zbek xalqi milliy ruhiyatida, boshqa ko'plab xalqlar qatori qora rangga bo'lgan munosabat salbiy qarash va tushunchalar bilan shartlanib qolgan. Qora rang ranglik xususiyatidan tashqari, ko'chma ma'noda qo'llanilib, so'zlovchi murojaatida uning ruhiy holatini, iztiroblarini, o'y-kechinmalarini ochib berishda faol ishtirok etadi.

...Tiriklik libosin pora qilurman,

Borliq ro'zg'orini qora qilurman.

...Lekin Shomil nomin qildilar qora,

Yog'dirdilar mardning sha' niga bo'hton.

...Muallim urishsa turaverdi jim.

Dadasidan kelgan ekan qora xat.

(E.Vohidov)

Nechun qora libos, sochlaringda oq,

Nechun bu ko'klamda sen parishonhol?»

Yig'lab kelib, yig'lab ketar odamzod,

Libosimday qora she'rlarni yozdim,

(Zulfiya)

“...Lekin, azalda taqdirimiz qora bitilgan ekanmi, tez kunda boshimizga og'ir kunlar tushdi”

Zolimlarning, zamon zo'ravonlariningyoqalarini tutib, toptalgan huquqlarini dovlash, qonxo'r oq podshohning qora dovrug'ini, uningmazlum xalqlar boshida jilpanglagan ilon qamchinini sindirish kuni!

Yormat«qora kun» uchun o'nyillardan buyon tiyinlab, juda ko'p bo'lsa, bir mirilab yiqqan pulini sanadi: bir yuz qirq uchso'mga yaqin.(Oybek)

Ayollar murojaatida ko'proq ranglar ijobiy xarakterda ishlatiladi: Peshin bo'p qoldi deng, qoravoy? Barakalla! (O'.Hoshimov).

Bundan tashqari, sariq rang ham nisbatan salbiy bo'yoqda bo'lib, u kishi ruhiyatida horg'inlik, so'lginlik, vaqtning o'tib borayotganligini ifodalaydi.

Payt kelsa chechak ham sarg`ayar, so`lar.

Kim bilgay paymonang qay yerda to`lar,

(A.Oripov)

Baxti bor ekan sariq mashakni! — dedi boshqasi unga javoban.

(O`.Hoshimov)

Oq, qizil, moviy, yashil kabi ranglar yaxshilik, ezgulik belgisi sifatida baholanadi. Fikr ifodalashda bu ranglar go`zallik, nafosat belgisi sifatida ham qo`llaniladi.

Yam-yashil shaharning eng o`rtasiga

O`rnatib qo`yamiz katta surating.

Suratdan boqardi yarim yashar qiz,

Men kabi sariq soch,

Yuzi dumaloq.

Azizim, g`unchaga nazar sol bir on,

Bag`rida hozircha turfa hol pinhon.

Ranglar yashar unda balki pushti, oq,

Ajab, tikoni ham hozircha yumshoq.

Lahzada kuch yig`ding Alpomishsimon,

Yaloving bo`loldi moviy osmonlar.

Kimning peshonasin bezaydi bu la`l,

Kimlarga hadya bu oppoq tabassum.

Moviy kengliklarda o`ynaydi shamol.

Daralar qo`ynida zangor bir havo,

(A.Oripov)

Ayollar va erkaklar o`z nutqida rang vositalaridan faol foydalanar ekanlar, ularni qo`llashda, ya`ni ijobiy hamda salbiy ma`noda ishlatishda bir xil yondashadilar.

Ayollar nutqida kuchli ta`sirchanlik, emotsional-baholovchi leksik birliklarning ko`pligi xos bo`lsa, erkaklar nutqi uchun kasbiy atamalarning ko`pligi, ta`sirchan vositalarning juda kamligi, voqea-hodisalarga sovuq munosabatda

bo'lish va fikr ifodalashda o'ziga xos dag'allik mavjud bo'ladi. Umuman, ayollarda yomon, erkaklarda esa yaxshi his-tuyg'ularni ochiqdan ochiq ifodalash o'zbek tilida kamdan kam kuzatiladi.

Shuni qayd etish lozimki, o'zbek tilida nutq qaratilgan shaxsga nisbatan emotsional munosabatning kuchli ifodalanishi ko'proq ayollar nutqida kuzatiladi: *O'zimning ulginam, suyanchiqqinam, - derdi shunday paytlari onasi uni erkalab. – Silardi deb dunyoda yashab yuribman-da, mening mehribonginam.* (N.Eshonqul. Urush odamlari).

Yuqoridagi matnda qo'llanilgan *ulginam, suyanchiqqinam, silardi deb dunyoda yashab yuribman-da, mening mehribonginam* kabi leksik, morfologik va sintaktik birliklarerkalash, yupatish kabi ma'nolarni ifodalagan va mazmun ekspressivligini, emotsionalligini ta'minlashga xizmat qilgan. Bu birliklarning shevaga xos variantda berilishi til shaxsi namoyon bo'lishida muhim komponentlardan hisoblanadi.

O'zbek tilida ayollar nutqida *-im* egalik qo'shimchasining erkalash ma'nosining ifodalanishida faolligi seziladi. O'zbek tilida o'zlik olmoshining *o'zimning qo'zichog'im, o'zimning toychog'im, o'zimning asalim* kabi birinchi shaxs birlikdagi ko'rinishi ishtirokidagi erkalash ma'nosini ifodalovchi ayrim leksik birliklar, yuklamalar, his-hayajonni ifoda etuvchi til birliklari, takrorlash, metafora kabi stilistik vositalarasosan ayollar nutqida fikrning ta'sirchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi seziladi.

«O'zbek tilida: asalim – 32 %, jonim – 30 %, shakarim – 10 %, shirinim – 8 %, novvotim – 8 %, qolgan 12 foizi EFSMning tarkibiga kiruvchi boshqa so'zlar, so'z birikmalari va frazeologik birliklardir».¹⁹

Ta'sirchanlik kuchayishida ohang va urg'u ham muhim ahamiyat kasb etadi. Agar so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan munosabati ijobiy bo'lsa, shu munosabatni ifodalovchi, biri ikkinchisini mazmunan to'ldiruvchi gaplar ham shunga mos tarzda zanjirsimon ko'rinishda o'zaro bog'lanib, yaxlitlik hosil qiladi.

¹⁹Alimova B. Badiiy matnda "lisoniy shaxs" namoyon bo'lishining sotsiopragsmatik talqini. Magistr.akad.daraj.olish...diss. – Samarqand, 2014. 61-b.

Shunisi xarakterliki, ijobiy munosabat ifodalashda ayollar nutqi alohida ajralib turadi:

Xudo yorlaqasin sizni! – yig`lab duo qildi Anzirat. – Mendan qaytmasa, xudodadan qaytsin, bolalaringizning rohatini ko`ring, iloyo, martabangiz bundan ham ulug` bo`lsin!.. (N.Eshonqul. Urush odamlari).

Bundan tashqari, ayollar va erkaklar nutqining o`ziga xosligini belgilovchi asosiy omillardan biri ayollarning erkaklarga qaraganda nutqiy vaziyatda ko`proq *xushmuomalalik, odoblilik hamda hurmat ko`rsatishga*<sup>20</sup> harakat qilishlari yaqqol sezilib turadi. Masalan, *Voy uyingga bug`doy to`lgurlar, voy ko`paygurlar, kela qolinglar*, - deydi ovozi tovlanib (“Dunyoning ishlari”).

Erkaklar va ayollar nutqida uchraydigan murojaat shakllari semantikasi turfa xil. Ular nutqida qo`llaniluvchi so`zlar ham ijobiy, ham salbiy bo`yoqda bo`lishi mumkin. Erkaklar nutqida ko`proq qo`pol, so`kish, dag`al so`zlar bilan murojaat ifoda etilsa, ayollar nutqida kuchli emotsiyaga berilish, his-tuyg`u va kechinmalar orqali ifodalash, qarg`ish so`zlar qo`llash kabi holatlar ko`p uchraydi.

Badiiy asarlarda g`ayriaxloqiy so`zlar salbiy qahramonlarning nutqini individuallashtirish, ularga xos salbiy tomonlarni yanada ko`rsatish uchun ishlatiladi. Ayrim hollarda ijobiy qahramonlar nutqida ham bunday so`zlar ishlatilishi mumkin. Bunda ular shu personajning o`ta hayajonlanganligi yoki g`azablanganligi, o`zini tuta olmasligi oqibatini haqqoniy aks ettirish uchun qo`llanadi.

Ularning badiiy matnda tutgan o`rni haqida tilshunos E.Qilichev shunday fikrlaydi: ...g`ayriaxloqiy so`zlarning turlari, ma`nosi va ularning badiiy adabiyotdagi o`rni hamda vazifasini o`rganish uslubshunoslikda muhim ahamiyatga ega. G`ayriaxloqiy so`zlar o`z xarakteriga ko`ra so`kish, haqorat va qarg`ish so`zlariga bo`linadi. Ikkinchidan, ular erkaklar va ayollar nutqiga xosligi bilan ham farqlanib qo`llaniladi.

So`kish, haqorat so`zlarini semantik uslubiy jihatdan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

²⁰ Ko`rsatilgan manba. Qo`chqarova M. 46-b.

- a) axloq madaniyati (haromi, la'nati, muttaham);
- b) hayvon nomlari (it, eshak, cho`chqa);
- s)hasharot nomlari (chivin,chayon, g`o`nda);
- d) qush nomlari (boyo`g`li, qarg`a, chittak) va hokazolar bilan bog`liq bo`lgan g`azab nafratini ifodalovchi so`zlar.

Quyida erkaklar va ayollar nutqida uchrovchi salbiy bo`yoqqa ega bo`lgan murojaat shakllarini ko`rib chiqamiz.

1. Salbiy bo`yoqdorlikka ega murojaatlar (erkaklar nutqida):

**Bachchag`ar**<sup>21</sup>: so`k. 1. Nafrat g`azab bilan qattiq koyishni ifodalaydi.

Yum og`zingni, *bachchag`ar!*– “Karvon”yana po`pisa qildi. (“Mash`al”)

2. Yengil koyish, norozilikni ifodalaydi:

Jilla qursa, oq soqolimni hurmat qilmadi-ya, *bachchag`ar*. (“Yoshlik”)

*Bachchag`ar* so`zi faqatgina erkaklar nutqida uchrovchi so`z hisoblanib, kuchli salbiy munosabat bilan birga, nisbatan ijobiy xarakterdagi nutqiy murojaatda ham ishlatiladi.

Xumpar hazil aralash yengil so`kish shakli (“qurg`ur”, “shayton”, “shumtaka” kabi) – voy-bo`y, tirikmisan, *xumpar*, Toshkentga qachon kelding?.. – dedi Shum bolaga Turobboy. (“Shum bola”)

Xumpar so`zi erkaklar nutqida uchraydi. Salbiy bo`yog`i kam. Qahr, qasddan aytilmaydi. Ko`proq hazil tarzidagi murojaatlarda qo`llaniladi.

Chyort asl ma`nosi shayton. Odatda, bu so`z sovuq va o`ta salbiy ta`sirdagi murojaat bo`ladi. Ya`ni kurakda turmaydigan holatlar yuzasidan beixtyor so`zlovchi shu so`zni aytib yuboradi. Lekin shaxsga qaratilganda, ba`zi hollarda o`zbekcha *xumpar* so`zidek qo`llaniladi.

Aha, yaxshi, yaxshi! A-a-auf, chyort, uyqu bosayapti. (T.Murod. Ot kishnagan oqshom).

Xumsa yengil so`kish shakli (“bema`ni”, “yaramas” kabi). *Xumpar*, xunasa kabi hazil aralash so`kish turi. Bu ham erkaklar nutqida ko`p uchragan. Hozirga kelib bu murojaat nisbatan nafaol.

²¹ O`zbek tilining izohli lug`ati (shu va shundan keyingi izohtalab so`zlar ma`nosi usbu kitob asosida).

Aytdim-ku, xumso, qizil gulday. (Oybek. Qutlug` qon).

**Enag`ar** so`k. Nafrat, g`azab, qattiq koyishni ifodalaydi. Uning yana *onag`ar*, *ukag`arkabi* juda qo`pol ko`rinishlari mavjud. Bu so`z ko`proq katta yoshli erkaklar nutqida uchraydi.

Bo`ldi-ye, enag`ar! Og`zim bor deb ingillay berasanmi! (T.Murod. Ot kishnagan oqshom).

Bandit (ital.bandito – quvg`in; qaroqchi). Bosqinchilik, o`g`rilik, kallakesarlik bilan shug`ullanuvchi qurollangan shaxs. Bu ham faqat erkaklar nutqida qo`llanilib, hammani “otib” ketuvchi, o`g`ri, kissovurlarga nisbatan qo`llaniladi.

Uh, hayvon, uh bandit! (T.Murod. Ot kishnagan oqshom).

Padar la`natiso`k. Otasi la`natlangan, la`natining o`g`li; umuman, qarg`ash, haqorat ifodasi. Bu so`z odatda noqobil farzandlarga nisbatan qattiq va qo`pol tarzda qollaniladi. Ba`zida otalarning o`z o`g`illariga nisbatan shunday so`z bilan tanbeh berganlari quloqqa chalinib qoladi.

He, padar la`nati! Mana, bo`lmasa, mana! — dedi. (T.Murod. Ot kishnagan oqshom).

Ablah (a.tentak, beaql, nodon). 1. Xulq-atvori tuban, yaramas axloqli. 2. Shu belgi xususiyatga asoslangan haqoratni bildiradi. Bu so`z erkaklar nutqida razil kimslarga nisbatan qo`llaniladi.

Sotqinnafr. O`z vijdonini sotib qarshi tomonga o`tgan; sotilgan, xoin. Sotqin so`zi, ayniqsa, murojaatlarda kuchli nafrat, hazar qilish tuyg`usi bilan ifodalanadi.

E, ablah, sotqin! — deb o`shqirdi Sodiq akam menga va suratni mayda-mayda qilib yirtidi-da, oyog`i ostiga olib toptab, keyin eshikni qattiq yopib chiqib ketdi. (O`. Hoshimov. Dunyoning ishlari).

Ityaloq shv. 1. Itga ovqat beriladigan idish, itning tuvagi. 2 so`k. Shu idishga nisbatli haqoratni bildiradi. Bu so`z odatda erkaklar nutqida qo`llanadi, biroq ayollar nutqida ham uchrab turadi. Bu murojaat orqali so`zlovchida nutq qaratilgan shaxsga nisbatan qattiq nafratlanish, jirkanish, hazar qilish kabi emotsiyalar bo`ladi.

Kampir uyda javrar, qizini qarg`ar edi: - E, o`l, ityaloq! Daydi itning tumshug`ini yog` qilmay o`l! (A.Qahhor. Qo`shchinor chiroqlari)

Maraz (a. kasallik) 1. Yiring olgan, fasod bog`lagan yara. 2. Shu narsaga nisbatli haqoratni bildiradi. *Hasanning gapiga qotib-qotib kulgan ham shu maraz emasmi?* (S.Siyoyev. Avaz). *Men bu marazni to`rt yildan beri bilaman.* (A.Qahhor. Ig`vogar). 3 *ko`chma*. Yaramas, zararli nuqson, illat. *Qo`shib yozish, ko`zbo`yamachilik degan maraz illat dehqonlarimiz sha`niga yaxshi bo`lmadi.* (“Mushtum”).

Kalxamaj go`ng yeydigan va go`ngni soqqa qilib, uning ichiga tuxum qo`yadigan qo`ng`iz. Ko`chma ma`noda erkaklar nutqida qo`llaniladi.

*Obbo, la`nati kalxamaj!* (Oybek. Qutlug` qon)

**Da`yus**(a. qo`shmach). 1. O`z xotinini bировga qo`shub beruvchi. 2. Qattiq so`kish iborasi. Bu so`z ham evfemistik xarakterda bo`lib, qattiq nafsoniyatni qo`zg`aydi, erkaklar murojaatida qo`llaniladi.

Kofir bo`lmasam, battar bo`lmaymanmi, senga nima, da`yus!(X.Sultonov. Yo Jamshid)

Ayollar nutqida uchraydigan murojaatlar:

Tasadduq (ar. sadaqa qilish) 2. Sadaqa bo`lay, o`rgilay. Odatda yoshi ulug` ayollar nutqida ko`p uchraydi. Quyidagi misoldan ham ko`rib turibmizki, bu so`zning izohiga bog`lab uni tahlil qilsak, “*barakalla, o`rgilay*” degan ma`no anglashilib, so`zlovchining his hayajonini ifodalovchi kuchli emotsiya deb qabul qilamiz. Bunday tushunilsa, murojaat shakli bo`yog`i kamroq. Lekin uni so`zma-so`z tarjima qilmay tinglovchiga murojaat sifatida qabul qilsak, ijobiy bo`yoqqa ega bo`lgan so`zlovchining xayrixohligini ifodalagan munosabat ekanligini anglab yetamiz. “Barakalla, **tasadduq!** – deydi Ermon buva jilmayib. – Umringizdan baraka toping...” (O`.Hoshimov. Dunyoning ishlari).

Ruscha erkalash ma`nosini ifoda etuvchi –*ichka* qo`shimchasi ayollar nutqidagi murojaatning ko`p qismini tashkil etadi. Bu orqali biz nutq qaratilgan shaxsning yosh ekanligini, ayni vaqtda nutq jarayonini rasmiy doirada emasligini, unga bo`lgan munosabatning ko`proq ijobiy xarakterda ekanligini ko`ramiz.

Minutochku, **Gulichka!** Bu naxallar... – to'siq orqasidagi xotin qoshini chimirib, biz tomonga yarq etib qaradi-yu, to'satdan yuzi yorishdi. (O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari).

Juvonmarg (fors. Yosh, bevaqt o'lgan) 1.Yosh o'lgan, avji yetilgan paytda nobud bo'lgan. 2. *qarg'ish* so'z. O'lgur, yer yutgur. “Ha,-a, *juvonmarg*, qo'limga tushdingmi! – dedi Hoji xola, yosuman tantanasini qilib.

Bu so'z odatda, kampirlar tilida qo'llanilib, qarg'ish ma'nosida qo'llaniladi. Unda qasddan niyat bildirish hamda shunchaki og'zaki nutq uchun xos bo'lgan murojaatni tushunamiz. Unda ifodalangan ma'no bir o'rinda salbiy bo'lsa, yana bir o'rinda, neytral, boshqa vaqtda esa ijobiy bo'ladi.

Shallaqisharm-hayoni bilmaydigan, bo'lar-bo'lmasga janjal ko'taradigan, janjalkash. Ham ayollar, ham erkaklar nutqida qo'llanuvchi qo'pol so'z. Odatda, ayollar nutqida murojaat shaklida emas, o'zi so'zlayotgan shaxs haqida xarakter ifodalasa, erkaklar nutqida, deyarli, murojaat sifatida qo'pol ma'noda qo'llaniladi.

O'sha shallaqini urgan bo'lsa ajab qipti! O'zi yomon xotinqilg'iligiga yarasha bo'pti! – dedi Dilshodning onasi (U.Hamdam. Sabo va Samandar).

So'zga quloq sol, shallaqi makiyon!—Yormat ko'zlarini nayzaday qadadi. (Oybek. Qutlug' qon).

Sho'rlikkinam, qo'zichog'im va boshqa sifatlar bilan ifodalangan murojaatlarning deyarli ko'pchiligi ayollar nutqida uchraydi. Bu murojaatlarda mehr-muhabbat, rahm-shafqat, qayg'urish, ezgu niyatlar izhorini ko'ramiz. Ularda ijobiy bo'yoqqa mansublik yaqqol sezilib turadi.

Aylanay bolam, sho'rlikkinam! Xudoning qasdi bor ekanmi senda, jon bolam! (U.Hamdam. Sabo va Samandar). *Eh, tentak qizim, qo'zichog'im.* (Sh.Rashidov G'oliblar)

Ayollar nutqida qo'llanadigan ba'zi salbiy bo'yoqdagi murojaatlar orqali tinglovchi nutq qaratilgan shaxs haqida faqatgina adresantning nafrati, u insonni xushlamasligi bilan birga u haqda anchagina axborot ham berib qo'yadi:

– Quvib chiqardim *juvon o'lgurni!* – dedi.

– Bolam bechorani sochlaridan sudrab yurib urdi, qorinlariga tepdi, *yigit o`lgur qimorboz!*

– Hamma ayb sizda! Erga bermay devga berdingiz, Xudo olsun o`sha *go`rso`xta qarindoshingizni!..*

– Ha,-a, *juvonmarg*,qo`limga tushdingmi! – dedi Hoji xola, yosuman tantanasini qilib.

– *Voy burningdan qoning kelgur kim u? Kim otgan?*– dedi Hoji xola atrofiga jovdirab.

Tadqiqotimiz davomida erkaklar va ayollar nutqida uchraydigan iboralarga ham e`tibor qaratdik.Iboralarda boshqa ma`nolardan ko`ra jins ma`nosi ustunlik qilishi mumkin. Masalan: *Bu ho`kizga gap kor qilarmidi?!* Ushbu misoldagi *gap kor qilmoq* iborasi faqat erkak kishilarga nisbatan ishlatilishini bilamiz. Lekin tilimizda shunday iboralar ham borki, ularning ishlatilishi jins farqlamaydi, ya`ni erkak va ayollarga nisbatan ham birdek ishlatilaveradi.

Ushbu tahlillarimiz asosida iboralarni jinsni ko`rsatishiga ko`ra quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

1. Nutq sharoitiga ko`ra har ikki jinsga nisbatan qo`llana oladigan iboralar: “Inak buyrak jegan”, “Qari echkidan qo`rq”, “Burni popraygan”, “Ko`rasi ko`rmagan” va boshqalar.

2. Faqat erkak jinsiga nisbatan qo`llanuvchi iboralar: “Tirriq bachcha”, “Ustiga ot haydadi”, “Otangning jiligi”, “Ottan tushdi”va boshqalar.

3. Faqat ayol jinsiga nisbatan qo`llanuvchi iboralar: “Beti bezraygan”, “Ro`mol chiydi”, “Oq o`ragan”, “Bet ochar”, “Shoboz qog`ir”, “Tilingdan topgir”, “Qora bosqir”, “Dudoring qurig`ir”va boshqalar.

Yuqoridagilar shuni ko`rsatadiki, o`zbek tilidagi, shuningdek, qipchoq lahjasidagi iboralarning jinsni ifodalash imkoniyati hammasida ham bir xil emas, ayrimlari nutq talabi bilan har ikki jins vakillariga nisbatan ham, ayrimlari esa faqat erkak yoki faqat ayol jinsi vakillariga nisbatan qo`llanadi.

Qipchoq shevasi vakillari nutqida uchrovchi iboralar o'z navbatida ayollar nutqida uchrovchi iboralar, erkaklar nutqida uchrovchi iboralar va har ikkala nutq vakillari nutqida uchrovchi iboralarga bo'linadi.

Qipchoq shevasida ayollar nutqida *"Bo'y yurguncha en yur"* – iborasiga duch kelamiz. Bu ibora to'quvchilik sohasiga oid bo'lib, gilam, paypoq yoki boshqa narsalarni to'qish davomida tez, sifatsiz nomigagina bitkazish emas, balki sifatiga e'tibor qarat ma'nosida qo'llanilgan. Shu bilan birga bu sheva ayollarining asosiy mashg'ulotlaridan biri to'quvchilik sohasi ekanligi tilida ham aks etganini ko'ramiz.

Shuningdek, bu sheva ayollari nutqida *"qo'l oyog'ini yig'ishtirib olmoq"* – iborasi ham keng uchraydi. Bu ibora homilador ayollarning eson –omon farzandini dunyoga keltirgandan so'ng u ayolga nisbatan qo'llaniladi. Nutq egalarining tug'di deya qo'pol tarzda emas, balki madaniyatiga xos muloyimlik sezilib turadi.

"Osmonga qo'ysam gard bo'ladi, yerga qo'ysam chang bo'ladi" – iborasi ham sheva ayollari nutqining o'ziga hosligini taminlashga xizmat qiladi. Mazkur ibora ayollar tilida o'zining yosh farzandiga nisbatan qo'llaniladi. Bundan ayolning o'z farzandiga nisbatan mehr-muhabbatining cheksizligi, uni yer-u ko'kka ishonmasligi, bolajon xalq ekanligi ko'rinadi, ularning ichki tuyg'ulari tilida namoyon bo'ladi.

Qipchoq shevasi ayollari tilida *"Kuchali mehmon suymali"* – iborasi ham faol va keng qo'llaniladi. Kucha so'zi kulcha, non ma'nosida bo'lib, ayollarning mehmondorchilikka quruq qo'l bilan emas, balki dasturxon bilan borsagina hurmatli mehmon bo'ladi degan ma'noda ishlatiladi. Shu bilan birga bu iborada o'zbeklarga xos milliylik, boshqalarga nisbatan hurmat-izzatning cheksizligi ham namoyon bo'ladi.

"Beti bezraygan" – iborasi ham ayollar nutqida keng uchraydi. Bu ibora qo'pol, muomala madaniyatini bilmaydigan, boshqalar ko'nglini tez og'ritib qoyadigan ayollarga nisbatan, ayollar nutqida qo'llaniladi.

Shuningdek, bu sheva ayollari nutqida to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan ko'plab iboralarni uchratishimiz mumkin. Masalan, "Bet ochar" iborasi

ham keng uchrab, yosh kelinchakning yuzidagi pardasini pok nafasli yosh bolaning ochishi tushuniladi.

“*Ro'mol chiydi*” – qiz tomonga yigit tomonidan sovchi bo'lib borgan kishilarning rozilik olib qaytishi. Boshini bog'ladik, bu qiz endi bizniki ma'nolarida bu iborani qo'llashadi.

Shuningdek,

- *gapi ko'p-g'iybatchi* – gap tashuvchi ayollarga nisbatan qo'llaniladi.
- *qo'lida olib yurmoq* – e'zozlamoq, qadrlamoq ma'nosida qo'llaniladi.
- *qiymaslik qildi* – yaxshi narsalarni, ne'matlarni menga ravo ko'rmadi ma'nosida.

- *manglayi olti qarich* – omadi chopgan baxtli ma'nosida.
- *ayroni ochimas* – beg'am, betashvish ayol ma'nosida qo'llaniladi.
- *betidan bosgan* – bezor bo'lgan, joniga tekkan ma'nosida.
- *oq o'ragan* – taziyal, azodor ayollarga nisbatan qo'llaniladi.
- *oyog'i yoqdi* – fayzli, barakali ma'nosida.

Qipchoq lahjasi erkaklari nutqida ham o'ziga xosliklarga ega bo'lgan ko'plab iboralar uchraydi:

“*Tomoq qirdi*”- iborasi, erkaklar nutqida keng uchrab, kishi suhbatdoshiga, uning mulohazalariga o'z e'tirozini bildirishi yoki vaziyatga qarab boshqa turli ma'nolarda qo'llanilishini kuzatishimiz mumkin.

“*Tirriq bachcha*”- iborasi ham erkaklar nutqida keng qollaniladi. Bu ibora ishi tushsa hol-ahvol so'rab, boshqa paytda tanimaslikka olib ketuvchi erkaklarga nisbatan qo'llaniladi.

“*Otangning jiligi*”-bu ibora erkak kishilar nutqida, biror ishni chala yoki xato qilib qoygan o'g'il bolalarga nisbatan qo'llaniladi. Shu bilan birga ushbu iborada ijobiy xususiyat ham sezilib turadi, ya'ni bolaga nisbatan erkalab tanbeh berilishidir.

Shuningdek shu iboralar bilan bir qatorda bu sheva vakillari erkaklari nutqida “*Ustiga ot haydadi*”- iborasi ham keng uchraydi. Bu ibora yomonlik qildi,

ya'ni biror kishi ishining baroridan kelganligini ko'rib, xasad qilib, uning ishiga xalaqit berishi tushuniladi.

“Xarra tortmoq”-iborasi ham erkaklar asosan dehqonchilik sohasi bilan shug'ullanuvchi kishilar tilida uchraydi. Bu ibora boshoqli ekinlarning yanchilib, shamol yordamida donini ajratib olish maqsadida shamol yo'nalishiga ko'ndalang tarzda uyib qo'yilishi tushuniladi.

“Xirmon tashlamoq”- iborasi ham asosan erkaklar nutqida keng uchrab, bir joyga yig'ib qoyilgan don va somoni bilan aralashib yotgan hosilni kurak yoki shunga o'xshash ish quroli bilan shamol yo'nalishiga qarshi havolatib otib, donni samondan ajratib olish tushuniladi. Shuningdek bu iboradan anglashilib turibdiki, qipchoq shevasi erkaklarining asosiy mashg'ulotlaridan biri dehqonchilik sohasi ekanligi ham ko'rinib turadi.

Har ikkala nutq vakillari nutqida uchraydigan iboralar: *“Inak buyrak jegan”* sheva vakillari nutqida keng uchraydi. Inak sigir so'zining ma'nodoshi bo'lib, inakning buyragini yegan ma'nosini anglatadi. Bu esa qipchoqlarda mehrsiz, tosh mehr kimsalarga nisbatan aytiladi. Har bir hududning asosiy mashg'ulotlari tilida aks etgani singari qipchoqlarning ham kasb-kori tilida namoyon bo'ladi.

“Qari echkidan qo'rq”-iborasi ham keng uchrab uning tarkibidagi echki so'zi kishi ma'nosida qo'llanilgan ko'chma ma'noli so'zdir. Yoshi ulug' kishilar oldida o'zingni bir pog'ana past tut, ular sendan ko'ra tajribaliroqdir ma'nosida qo'llaniladi. Bu iboradan ham qipchoqlar mashg'ulotining asosini chorvachilik tashkil qilishi anglashiladi.

Qipchoqlarda *“Gudurdan qutilmoq”*-iborasi sheva vakillari nutqining o'ziga xosligini taminlashga xizmat qiladi. Bu so'z biron bir tashvishdan, muommodan qutilish ma'nosida qo'llanilib, sheva vakillari hayotida faol qo'llanuvchi birlik maqomida harakat qiladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, har bir hududda istiqomat qiluvchi aholining o'ziga xos turmush tarzi, madaniyati so'zlarida ham aks etib turadi.

“Bovur bosdi”-iborasi ham faol qo'llanilib kishining boshqalar narsasiga, omonatiga mehr qo'yib qolishi tushiniladi. Shundan ham ma'lum bo'ladiki, sheva

vakillarining o'ziga xos ruhiyati, madaniy qarashlari iboralar tarkibida mujassamlashgan tarzda yashaydi.

“Burni popraygan”-iborasi, burni katta, yoyinqi kishilarga nisbatan qo'llaniladi. Bu ibora o'ziga xos ma'no bilan birga, shu odamga nisbatan laqab ma'nosida ham qo'llaniladi. Ibora burni kattaga nisbatan boshqacha ruh bilan ishlatiladiki, bu holat ham sheva so'zlaridagi ma'daniy belgilarni ko'rsatadi.

“Ko'rasi ko'rmagan”-bu ibora ma'nosi, *“Ko'rmaganing ko'rgani qursin”* iborasi ma'nosiga mos kelib, kishining xarakter jihatlarini bilan bog'liqdir. Ya'ni nafsni tiya olmaslik, hamma narsada ochko'zlik qilishi, madaniyatsizlarcha harakat qiluvchi kishilarga nisbatan qo'llaniladi.

“Hardam xayol”-xayoli o'zida emas, kim nima desa o'sha kishining gapini ma'qullaydigan, o'sha vaziyatda o'zining shaxsiy meni bo'lmagan kishilarga nisbatan qo'llaniladi. Bunday xarakterdagi kishilarni boshqa nom bilan ta'riflagandan ko'ra *“hardam xayol”* deya aytib qo'yilishining o'zi ham bu sheva vakillarining madaniyatidan dalolat beradi.

“Og'zingga tosh”- ushbu ibora qipchoqlar tilida keng uchrab, asosan yoshi kattalarning yoshlarga nisbatan qo'llaydigan iborasidir. Ya'ni yoshlar yomon niyatli gaplarni aytib yuborganda *“og'zingga tosh”*, yaxshi niyatli gaplarni gapirganda esa *“og'zinga joy”* iboralarini qo'llashadilar.

“Uzun quloq”- xabarni, biror gapni hammadan oldin eshitadigan va boshqalarga ham hammadan oldin yetkazishni xush ko'radigan kishilarga nisbatan qo'llaniladi. Buning natijasida boshqalar ham biror xabarni bilish uchun aynan shu toifadagi kishilarga murojaat qiladilar.

“Jo'li bo'ldi”- iborasi xursand bo'ldi, minnatdor bo'ldi ma'nolarida qo'llaniladi, ya'ni kishi biror yumishini bajarib bergan kishidan minnatdor bo'lishi tushuniladi. Bu ibora ham sheva vakillari nutqining o'ziga xosligini ko'rsatib turadi.

Demak, o'zbek tilidagi, shuningdek, qipchoq lahjasidagi iboralar nutqning ta'sirchanligi va jozibasini oshirish bilan birga jins munosabatiga ham aloqadordir.

Jahon tilshunosligida bo'lgani kabi, o'zbek tili va nutqining gender xususiyatlarini batafsil tadqiq etish, muammoga oid boshqa masalalarning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'rganish, shubhasiz biz talabalar oldida turgan dolzarb vazifalarimizdandir.

UMUMIY XULOSALAR

1. Til va murojaat, til va tafakkur, til va jamiyat, til va ruhiyat munosabatlarini o'rganish, ular natijasida inson omili, uning tili, jinsi, yoshi, turmush tarzi, dunyoqarashi, ruhiyati, orzu-umidlari kabi hodisalar yuzasidan keng va chuqur bilim egallanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi o'zbek tilshunosligida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ahamiyati katta ekanligi ham anglashiladi.

2. Gender erkaklar va ayollar aynanligi va xulq-atvordagi tafovutni nazarda tutadi.«Gender» tushunchasi fanga biologik jinsning, ya'ni ular asosida insonlarni erkak va ayolga ajratuvchi «jins» tushunchasidan ajratish uchun kiritilgan.

3. Gender tadqiqotlarda erkaklik va ayollik (maskulinnost va feminizm)ka xos axloq me'yorlari tushuniladi. Ana shunday axloq me'yorlari ichida muloqot xulqimasalasi markaziy masalalardan biri bo'lganligi bois genderologik muammolarni lingvistik aspektda o'rganish zarurati tug'ildi va genderolingvistika ana shu zarurat tufayli alohida bir soha sifatida paydo bo'ldi.

4. Tilshunoslikda genderologik tadqiqotlardan ko'zlanadigan asosiy maqsad ayol va erkak nutqiga xos bo'lgan, har ikkala jins vakillariga xos uslubda voqealangan yozma yoki og'zaki matnlarni farqlash ko'rinishidagi "lisoniy asimmetriya" hodisasining turlari va sabablarini aniqlashdir.

5. Murojaat insonlar o'rtasida aloqa aralashuvini ta'minlovchi asosiy tarkibiy qismlardan biridir.

6. Tilning asosiy funksiyasi, qator vazifalari murojaat bilan bog'lanadi. Umuman tilning barcha vazifalari – kommunikativ, emotiv, volyuntativ, aloqa o'rnatish – sotsiativ, reprezentativ funksiyalari so'zlovchi va tinglovchi orasidagi turli tuman munosabatlarni ifodalaydi. Chunki til har doim fikr uzatish (bu so'zlovchi uchun) hamda fikr qabul qilish, anglash (bu tinglovchi uchun) vositasi bo'lib kelgan. Murojaatning mazmunan har xil shakllanishi – quvonch, qo'rqinch, gina, iltifot, nafrat kabi ma'no ottenkalari qo'shilgan holda ifodalanishi – eng avvalo ijtimoiy muhit va sharoitdan kelib chiqadigan munosabatga bog'liq. Til esa

ana shu munosabatni qanday bo'lsa o'shanday, asliga mos holda ro'yobga chiqishi uchun vosita bo'ladi.

7. Murojaat shakli nutq qaratilgan obyektни ifodalovchi so'z yoki so'zlar birikmasi bo'lib, u ma'lum asoslarga ko'ra guruhlanadi, tasnif qilinadi.

8. Ayollar va erkaklar nutqining fonetik, leksik-frazeologik, grammatik, stilistik va boshqa turdagi farqlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

9. O'zbek tilshunosligida genderolingvistika yo'nalishda endigina ayrim ishlarga qo'l urilmoqda.

10. Kishining ma'lumoti va kasbi lisoniy shaxsning ijtimoiy tavsifi hisoblanadi. Yoshga va jinsga oid farqlar lisoniy shaxs nutqida o'z aksini topadi. Demak, ayollar nutqida kuchli ta'sirchanlik, emotsional-baholovchi leksik birliklarning ko'pligi xos bo'lsa, erkaklar nutqi uchun kasbiy atamalarning ko'pligi, ta'sirchan vositalarning juda kamligi, voqea-hodisalarga sovuq munosabatda bo'lish va fikr ifodalashda o'ziga xos dag'allik mavjud bo'ladi. Umuman, ayollarda salbiy, erkaklarda esa ijobiy his-tuyg'ularni ochiqdan ochiq ifodalash o'zbek tilida kamdan kam kuzatiladi.

11. Ayollar murojaat ifodalashida ekstralingvistik vositalar ham faol rol o'ynaydi. Ularni shartli ravishda jestikulyatsion, fonatsion, rang vositalarga ajratish mumkin. O'zbek tilida ayollar nutqida *–im* egalik qo'shimchasining erkalash ma'nosining ifodalanishida faolligi seziladi.

12. Erkaklar nutqida ko'proq qo'pol, so'kish, dag'al so'zlar bilan murojaat ifoda etilsa, ayollar nutqida kuchli emotsiyaga berilish, his-tuyg'u va kechinmalar orqali ifodalsh, qarg'ish so'zlar qo'llash kabi holatlar ko'p uchraydi.

13. Muloqot jarayonida erkak va ayol murojaatida ijobiy hamda salbiy bo'yoqdagi munosabatni yaqqol sezish mumkin.

14. Erkaklar va ayollar nutqidagi yana bir o'ziga xoslik ularning barqaror birikmalarni qo'llash jarayonida ham yuzaga chiqadi. Iboralarda boshqa ma'nolardan ko'ra jins ma'nosi ustunlik qiladi.

15. Murojaat ko'p qirrali hodisa bo'lib, struktual, sotsial va psixologik lingvistikaning o'rganish obyektidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987. – 88 б.
2. Абдуллаева М., Абдурашидов М., Абилов У. Фалсафа қисқача изоҳли луғат. -Тошкент: "Шарқ". –Б.126.
3. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – 60 б.
4. Акбарова З. Мурожаат шаклининг тасниф асослари // Ўзбек тили ва адабиёти, 74-76-б.
5. Алимасов В. Гендер фалсафаси. – Тошкент, 2008, 5 б.
6. Алимова Б. Бадиий матнда “лисоний шахс” намоён бўлишининг социопрагматик талқини. Магистр.акад.дараж.олиш...дисс. – Самарқанд, 2014. -58-б.
7. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. - М.: Языки русской культуры, 1999. - 896 с.
8. Ахманова О.С. Словар лингвистических терминов, М., 1969. – 608 с.
9. Бегматов Е. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. Т.: Фан. 1985. – 200 б.
10. Бобокалонов Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар. НДА. Т. 2000. 19 б.
11. Дешериев Ю. Д. Социальная лингвистика. – М.: Наука, 1977. 382 б.
12. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. –Т.: Ўқитувчи, 1992. – 255 б.
13. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. –Самарқанд.1993.-27 б.
14. Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1985. – 101-б.
15. Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. - Т.: Фан, 1980. – 168 б.

16. Курбонова М. Гендеролингвистик тадқиқ янги парадигма сифатида // ЎТА, 2014/ №2, 43-б.
17. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1995.– 230 б.
18. Мўминов С. Ўзбек мулоқот ҳулкининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. док. ...диссертацияси. –Тошкент. 2001. -235 б.
19. Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. Т., Фан, 2005.
20. Нурмонов А. ва бошқ. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Т.: Фан, 1992.
21. Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Т., 2001. – 159 б.
22. Сайфуллаева Р.А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида ундалма. – Т.: Фан, 1968. – 75 б.
23. Сафаров Ш., Боймирзаева С. Гендер тилшунослиги ва матн тадқиқи //Хорижий филология, 2006. №4. –Б.33.
24. Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фанлари номзоди... дисс. –Т., 1998. – 170 б.
25. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V том, Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008 й, 592 б.
26. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II том, Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006 й, 680 б..
27. Ўзбек тили грамматикаси. II том. –Т.: Фан, 1975. – 610 б.
28. Ўзбек тили грамматикаси. Синтаксис. - Т.:Фан, 1976. – 560 б.
29. Холиқова З. Мурोजаат шаклларида гендер хусусиятлари. Бак.дар.ол...БМИ. – Андижон, 2013. -20-б.
30. Хотамов Н., Саримсақов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1979. – 365 б.
31. Худойбердиев Е. Адабиётшуносликка кириш. –Т.: Ўқитувчи, 2003. – 361 б.

Badiiy adabiyotlar:

1. AbdullaQahhor. Sarob. I-kitob. – T.: Adabiyot va san`at, 1987.
2. Oybek. Qutlug‘ qon. Roman. Mukammal asarlar to‘plami. Beshinchi tom. – Toshkent, 1976.
3. Hoshimov O`.Tushda kechgan umrlar.Roman. – Toshkent: «Sharq» nashriyot matbaa konserni Bosh tahririyati, 1994.
4. RashidovSh.. G`oliblar.
5. Hamdamov U. Muvozanat. –T., Sharq.
6. Said Ahmad. Ufq. Trilogiya. – T.
7. Qodiriy A. O`tkan kunlar. – T.:”Sharq”, 2008.
8. Oripov A. Saylanma. – T., 2001.
9. Qodirov P. Yulduzli tunlar

Elektron adabiyotlar va internet manbalari

1. www.ziyonet.uz
2. www.google.uz
3. www.libruary.com
4. www.google.ru
5. www.vikipediya.ru
6. www.scientist.uz